

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA FAKULTETI**  
**O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**  
**BITIRUVCHI KURS TALABASI**  
**Муллоқулова Шохистанинг**

**"Devoni Foniy" da qur'oniy g'oyalarning badiiy talqini"**  
**mavzusidagi**

*5 120 100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishida bakalavr akadem darajasini olish uchun yozgan*

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**(2017-2018-o'quv yili)**

**Ilmiy rahbar:**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent**

**Н.Ж.Бекова**

## **„Devoni Foniyy“da qur’oniyy g`oyalarning badiiy talqini**

**Reja:**

**Kirish**

**I bob**

**“Devoni Foniyy”ning tuzilishi, janriy tarkibi, g`oyaviy mundarijasi**

I.01. “Devoni Foniyy”ning tarkibiy tuzilishiga xos xususiyatlar

I.02. Forsiy devonning mavzu va g`oyalar olami

I.03. “Sittai zaruriya” – qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va salaflarga munosabat masalasi

**II bob**

**“Devoni Foniyy”da ilohiy-islomiy qarashlarning asl manbalar asosidagi g`oyaviy talqinlari**

II.01. Forsiy g`azallarda qur’oniyy g`oyalarning badiiy talqini

II.02. Imon, shukr, faqrlik kabi qur’oniyy g`oyalarning badiiy talqini

**III.Xulosa**

**IV.Foydalanilgan adabiyotlar**

**Mavzuning o`rganilish darajasi va dolzarbligi.** Jahon adabiyotshunosligida milliy adabiyotning ilohiyotga ehtiyoji va undan oziqlanishi xususida ko`plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, musulmon mamlakatlarida adabiyotning Qur'oni karim va hadisi sharifning adabiyotga ta'siri, so`z san'ati orqali ilohiy va islomiy qarashlarning yoritilishini o`rganish muhim masalalardan sanaladi. Mustaqillikdan keyin mamlakatimizda jamiyatning diniy-ruhiy asoslari va xalqimizning ko`p asrlik ma'naviy-axloqiy merosini o`zida mujassam etgan islom madaniyatini o`rganish va uni hayotga tatbiq etish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, O`zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyotiga zamin hozirlagan diniy, ma'naviy-ma'rifiy sarchashmalarni chuqurroq o`rganish hamda dunyoga tanitish bo'yicha tadqiqotlar yuzaga keldi. Binobarin, islom dini va mumtoz adabiyotimizning o`zaro ta'sir mezonlarini, jumladan, Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqinini Alisher Navoiyning ijodini matniy-qiyosiy tahlil qilish orqali amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangandi. Adabiyotshunoslikda navoiyshunoslikning ilmiy-nazariy yondashuvlari asosida Navoiyning forsiy merosidagi qur'oniy g`oyalarning badiiy talqinini aniqlash, ushbu oyamlarning matni va mazmunini asarda qo`llanganligini o`rganish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Mustaqillik tufayli adabiy meroslarimizni o`rganishda yangi istiqbolli yo`llar ochildi. Islomiy manbalar va badiiy adabiyotning o`zaro munosabatlari haqida adabiyotshunoslikda bir qator ishlar amalga oshirildi. "Devoni Foni" mavzusida Sadridin Ayniy, Shoislom Shomammedov, Ergashali Shodiyev, Sodir Erkinov, Homidjon Homidiy, Najmiddin Komilov, Rahim Vohidov, Nazora

Bekova kabi olimlar tadqiqotlar yaratishgan. H.Karomatovning “O`zbek adabiyotida Qur'on mavzulari” dissertatsiyalarida hamda Olim Davlatovning “Alisher Navoiyning she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini” tadqiqotlarida Navoiy ijodida Qur'on va hadislarining o`rni hamda ahamiyati haqidagi fikrlar yoritilib berilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Alisher Navoiyning forsiy she'riyatida Qur'on oyatlarining tutgan o`rni hamda islomiy g`oyalarning Navoiy ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashidagi darajasini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

— Alisher Navoiyning forsiy she'riyatida aynan keltirilgan oyat matnlarining manbalarini aniqlash, mazkur baytlarning g`oyaviy-badiiy mohiyatini ochib berish, asl matnni forsiy misralarda singdirish usullarini belgilash;

—shoir ijodida badiiy san'atlar yordamida Qur'on oyatlari ma'nosi singdirilgan bayt va misralarni tahlil qilish, ulardagi ma'no qatlamlarini ochib berish, bu she'rlar uchun Qur'on qay darajada asos bo`la olgani aniqlash;

— Alisher Navoiy forsiy she'riyatidagi Qur'oni karimda zikr etilgan qissa qahramonlari-payg`ambarlar, hakimlar hamda zalolatga yuz burgan kishilarning tasvirini tadqiq etish;

— Alisher Navoiy forsiy she'riyatida komil insonning oliy namunasi bo`lgan payg`ambar (s.a.v.)ning siymosini oyatlar yordamida tahlil va tadqiq etish.

**Tadqiqotning obykti.** Tadqiqot uchun Alisher Navoiyning yigirma jildlik Mukammal asarlar to`plamining 18,19,20-jildlaridan o`rin olgan “Devoni Foni” asosiy manba sifatida olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Alisher Navoiy forsiy merosida aynan yoki iqtibos tarzda qo`llanilgan Qur'on oyatlarining ma'no mazmunining badiiy talqinlarini yoritish tashkil etadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Alisher Navoiyning “Devoni Foni”sida islomiy gʻoyalarning oʻrni hamda forsiy merosda oyatlarning badiiy talqini asoslari ishlab chiqilib, “Devoni Foni”ning “Qur’oni karim” bilan aloqadorlik nuqtalariga eʼtibor qaratildi.

## **I bob**

### **“Devoni Foni”ning tuzilishi, janriy tarkibi, gʻoyaviy mundarijasi**

#### **I.01.“Devoni Foni”ning tarkibiy tuzilishiga xos xususiyatlar**

Zullisonaynlik Sharq she'riyati tarixida qadimiy an'analardan. XI asrda yaratilgan Saolibiyning “Yatimat ud-dahr” tazkirasida 119 ta zullisonayn shoir haqida ma'lumot berilgan. Ammo bu adiblarning iqtidori asosan bir tilda (ko'pincha o'z ona tilida) namoyon bo'lgan. Alisher Navoiyning esa har ikki tilda barakali ijod qilgani, ham turkiy, ham forsiy adabiyotda mumtoz shoir, so'z san'atining ustoziga erishgani, “Foni” taxallusi bilan yaratgan forsiy she'rlari nafaqat badiiy adabiyot vakillari, balki forsiyzabon xalqlar orasida ham katta shuhrat qozongani buyuk mutafakkir adabiy merosining jahonshumul ahamiyatini ko'rsatuvchi dalillardan biridir.

Navoiy “Majolis un-nafois”da dastlab yod olgan gʻazali Sayid Qosim Anvorning “Rindem-u oshiqem-u jahonsoʻz-u jomachok...” satri bilan boshlanadigan gʻazali ekanligini qayd qilsa, “Lison ut-tayr”da bolalik payti Shayx Sa'diyning “Guliston” va “Boʻston” asarlari boʻyicha ta'lim olganini, ayniqsa, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni uni oʻziga oshufta qilganini alohida muhabbat bilan xotirlaydi. Fors adabiyotiga boʻlgan muhabbat uning bir umrlik hamrohiga aylandi.

“Muhokamat ul-lugʻatayn”da Navoiy shunday yozadi: *“Bu xoksorga sabovat avoilidakim, ogʻiz huqqasidin biror gavhar zohir boʻla boshlar, ul gavharlar hanuz nazm silkiga kirmaydur erdikim, zamir daryosidin nazm silkiga tortilgʻon gavharlar tab' gʻavvosi sa'y bila ogʻiz sohiliga kela boshlamoq koʻrguzub erdi.*

*Chun mazkur bo'lg'on qoida bilakim, ado topti – mayl forsiy sari bo'ldi*". Bu mayl va ishtiyoq Navoiyning umri oxirigacha davom etdi. Natijada 1495-1500-yillar oralig'ida forsiy tildagi she'rlarini o'z ichiga olgan „Devoni Foniyy” to'plami tuzildi. Devon 554 g'azal, 1 musaddas, 1 tarkibband – marsiya, 64 qit'a, 72 ruboiy, 16 ta'rix, 266 muammo, 9 lug'zdan iborat. Navoiy bundan tashqari, yana tojik tilida ikkita qasidalar to'plami ham yaratgan. Ulardan biri „Sittai zaruriya” („Olti zaruriyat”) deb nomlanadi va quyidagi qasidalarni o'z ichiga oladi:

1. Ruh ul-quds (“Pok ruh”) – 132 bayt
2. Ayn ul-hayot (“Hayot chashmasi”) -106 bayt
3. Tuhfat ul-afkor (“Fikrlar sovg'asi”) – 99 bayt
4. Quvvat ul-qulub (“Qalblar quvvati”) -120 bayt
5. Minhoj un-najot (“Najot yo'li”) – 138 bayt
6. Nasim ul-xuld (“Jannat yeli”) -129 bayt

Bu qasidalar tasavvufiy mazmundagi asarlardir. Bundan tashqari, Navoiyning “Fusuli arbaa” (“To'rt fasl”) deb nomlangan asarida quyidagi to'rt qasida berilgan:

1. Qasidai saraton (“Yoz qasidasi”) -71 bayt
2. Qasidai xazon (“Kuz qasidasi”) – 33 bayt
3. Qasidai bahor (“Bahor qasidasi”) – 57 bayt
4. Qasidai day (“Qish qasidasi”) – 70 bayt.

Bu qasidalarda tabiat fasllarining o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan odamlarning fe'l-atvorlari, orzu-umidlari tasvirlangan.

“Devoni Foniyy” o'z tuzilishiga ko'ra “Xazoyin ul-maoniyy” tarkibidagi devonlardan bir necha xususiyatlari bilan farq qiladi:

– “Xazoyin ul-maoniyy” lirik asarlar kulliyoti tarkibidagi devonlar umrning to'rt fasliga muvofiq nomlangan bo'lib, she'rlarda muayyan tarzdagi xronologiya ko'zga tashlanadi. “Devoni Foniyy”dan esa, she'rlarning xronologiyasi haqida ma'lumot topish dushvor;

– “Xazoyin ul-maoniyy” mufassal debocha bilan boshlanib, unda shoir o'z ijodiy laboratoriyasi, devonning tuzilishi va tarkibi haqida ma'lumot beradi. “Devoni Foniyy”ning bizgacha yetib kelgan nusxalarida esa debocha yo'q;

– “Badoye’ ul-bidoya”ning debochasida keltirilishicha, turkiy tildagi devonlarda an’anadagi arabcha 28 harfga qo’shimcha ravishda fors va o‘zbek tillariga xos bo‘lgan “chim”, “je”, “gof” va “lom-alif” harflari bilan tugaydigan g‘azallar ham o‘rin olgan. “Devoni Foniyy”da esa, bu holat kuzatilmaydi;

– “Xazoyin ul-maoniy”dagi devonlarda har bir harf turkumidagi g‘azallarning boshlanishida hamd, na’t, mav’iza yo irfon mavzusidagi she’rlar joy olgan. “Devoni Foniyy”da esa, bu tartibga rioya qilinmagan (faqat “alif”, “te”, “jim”, “kof” harfidagi turkum g‘azallar bundan mustasno);

– “Devoni Foniyy”dagi g‘azallar o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra “Na’t”, “Tatabbu”, “Tavr”, “Javobiya”, “Muxtara” (yo “Ixtiro”) kabi turlarga tasniflangan hamda har bir g‘azalga alohida sarlavha qo‘yilgan. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida esa, har bir harf turkumi uchun alohida nasriy sarlavha yozilgan;

– “Devoni Foniyy” turkiy devonlarga qaraganda janrlar xilma-xilligi kamroq. “Xazoyin ul-maoniy” tarkibiga 16 janrdagi she’rlar kirgan bo‘lsa, “Devoni Foniyy”da shoir 9 ta janrda qalam tebratadi. Bulardan ta’rix janri “Xazoyin ul-maoniy” tarkibida uchramaydi.

O‘zbek adabiyoti tarixida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘n ikki mingdan ortiq she’riy satrni o‘z ichiga olgan “Devoni Foniyy”ni o‘rganish dastlab Sadridin Ayniy nomi bilan bog‘liq. Izlanishlari natijasi o‘laroq “Alisher Navoiy” monografiyasi vujudga kelgan edi. 1941-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500yilligiga mehmon bo‘lib kelgan eron olimi Ali Asg‘ar hikmat O‘zfan ilmiy sessiyasida Foniyy devonining Tehron nusxasi haqida axborot bergan edi. Keyinchalik navoiyshunos olim Hamid Sulaymon ham xorijiy olimlar tuzgan kataloglardan foydalanib, Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan “Devoni Foniyy” ning eng to‘liq nusxasini aniqlagan va uning mikrofilmini olishga muvaffaq bo‘lgan. So‘ngra olim jahonning boshqa kutubxonalaridagi Foniyy devonlarini ham tekshirib uning hozircha besh nusxasi borligini aniqlagan. Shundan so‘ng, ushbu qo‘lyozmalarga tayanib devon haqida fikr-mulohazalar aytishga yoki uning turli tomonlarini tadqiq etishga ilk qadamlar qo‘yildi. “Devoni Foniyy” mavzusida

Sadriddin Ayniy, Shoislom Shomammedov, Ergashali Shodiyev, Sodir Erkinov, Homidjon Homidiy, Bekova Nazora kabi olimlar tadqiqotlar yaratishgan. Undagi har bir janr o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyat, tasvir usullari va badiiy fazilat hamda ichki ohangdorlikka ega. Shuning uchun o'quvchining g'azal o'qishdan olgan taassurotlari ruboiy yoki qit'a mutolaasidan farqlanadi. Navoiyshunos olimlarning e'tiroflari bo'yicha „Siittai zaruriya” va „Fusuli arba”dagi qasidalar Sharq mumtaz qasidanavislik tarixidagi takrorlanmas hodisalardandir. “Devoni Foni” Navoiyning forsiy ustozlari tajribalariga izdoshlik va adabiy vorisiylik ehtiyojini ifodalaganligi uchun ham undan diniy, irfoniy va ilohiy ishq tuyg'u va ma'nolari muhim o'rin egallagan. Alisher Navoiyning o'zi “Muhokamatul-lug'atayn” asarida mazkur devon ta'rifida yozgan edi:

“Yana forsiy g'azaliyot devoni xoja Hofiz tavidakim, jami' suxandonlar va nazm piyrolar nazarida mustahsan va matbudir, tartib beribmenkim, olti mingdin abyoti adadi ko'proqdirki, ko'prak ul hazrat she'riga tatabbu' voqe' bo'luptur. Va ba'zi Hazrati Shayx Muslihiddin Sa'dig'akim g'azal tavi muxtariidur. Va ba'zi Mir Xusravg'akim, ishq otashkadasining shu'la angizidur va dard g'aribxonasining ashkrezi. Va ba'zi Hazrati Maxdumiy Nurang'akim kamol avjining mehri loimidur va mazkur bo'lg'on azizlar holotining jomiiki, bu devon xaloyiq orasida shoedur va ro'zgor ahlining tablari ul sari roje va anda ko'p turluk dilkash adolar va dilpazir ma'nolar voqedurkim tafsiri bu faqirdin munosib emas.” Bunda shoirning o'zi devonga qisqa, ammo chuqur mazmunli tavsif berib, uning xarakterini, mazmun-mundarijasini ham, shakli sifatini ham, umumiy hajmini ham yaxshi ochib bergan. “O'zining “Muhokamatul –lug'tayn”inida yozganiga ko'ra,- deydi Abdurauf Fitrat ,- Navoiy o'n bir – o'n besh yasharliqdan qirq yasharliqqacha fors adabiyoti bilan juda kuchli sur'atda mashg'ul bo'lgan, zamonida mavjud fors devonlarining hammasini bo'lmasa ham, ko'bini ko'rgan. O'zining forsiy she'rlarini ko'prak Xisrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy ham o'zining ustodi bo'lgan Mavlono Jomiyning ta'siri ostida yozgan”



Xullas, Fitrat Navoiyning „ Fors tilida ham teran, usta bir san’atkor” bo`lganini e’tirof etarkan, „uning forsiyda kuchsiz bo`lg`oni” to`g`risida Boburning ma’lumotini ko`pda qabul qilmasligini ham aytadi.

Shoir “G`azalda uch kishi tavidur ul nav’...” misrasi bilan boshlanadigan qit’asida Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va Xisrav Dehlaviyning o`z g`azaliyotiga o`tkazgan ta’sirini alohida ta’kidlagan. Bu ta’sir „Devoni Foniyy”dagi g`azallarda yanada jonli va yorqin zaylda ko`zga tashlanadi. Ushbu fikrni g`azallarning, asosan, Hofiz ,Jomiy, Dehlaviy tavrda yozilganligi ham tasdiqlaydi. „Navoiy asarlari lug`ati” da izohlanishicha, tavr – arabcha so`z bo`lib, 1. Surati hol, tarz, ravish, yo`sin,nav; 2. odat , qiliq, ado, usul, tartib ma’nolarini bildiradi.(Toshkent,1979. 583-b) Navoiy,asosan, hol, ravish, usul va ifodani nazarda tutgan. Tavrning tatabbudan asosiy farqi shundaki, unda vazn, qofiya yo radif mezon qilib olinmaydi, balki unda o`zga shoir qo`llagan uslubda yangicha talqindagi timsollar,ramz va badiiy tasvir vositalaridan foydalanish talab qilinadi. “Devoni Foniyy”da faqat to`rt shoir – Sa’diy Sheroziy (2 g`azal), Amir Xusrav Dehlaviy (11 g`azal), Hofiz Sheroziy (20 g`azal) va Abdurahmon Jomiy (8 g`azal) tavidagi g`azallarni uchratamiz. Shuningdek devonni kuzatarkanmiz, g`azallarning aksar qismi tatabbu’lardan iboratligini bilamiz. Tatabbu' arabcha so‘z bo‘lib, biror narsaning izidan borish; tadqiq va tahlil; izdoshlik qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Adabiy istiloh sifatida biror shoir she'ridan ta'sirlanib, undagi vazn, qofiya, radif va obrazlar tizimini saqlagan holda yaratilgan asarga nisbatan qo`llaniladi. Sharq she'riyatida oldingi yoki zamondosh shoirlar she'riga javob aytish, muayyan she'riy “qolip”da texnik mahorat va ijodkorlik iqtidorini namoyish etish go‘zal an'analardan hisoblanadi. Umuman, ijod jarayonida bir-biridan ta'sirlanish, ijodiy yutuqlardan bahramand bo‘lish hamda yangi topilma va ifoda vositalari yordamida rivojlanishning yangi cho‘qqisiga olib chiqish ijod jarayonining barcha turlari uchun umumiy holatdir.Foniyy ham ijodiy hayotining barcha bosqichlarida doimiy o`rganish va izlanishda bo`lib, forsiy she'riyatning yetuk vakillari – Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylar bilan bir qatorda Ahmad Hojibek Vafoiy, Amir Shayxim

Suhayliy, Husayniy (Husayn Boyqaro) kabi zullisonayn zamondoshlarining forsiy gʻazallarining payravligida (yangi gʻazallar bitdi. Bundan maʼlum boʻladiki, Foniyy tatabbu' yozishda muayyan shoirga emas, balki maʼlum bir sheʼrdagi ijodiy yangilik va topilmalarni rivojlantirishni maqsad qilgan. Tatabbu'larning asosiy qismi Xoja Hofiz Sheroziy gʻazallariga bogʻlangan. Buning sababi, albatta, buyuk lirik shoir ijodining mazmun nuqtai nazaridan Navoiy diqqatini oʻziga tortganligi, uning muhabbatini qozonganligi, unga hammaslak va hamfikir ekanligida boʻlgan. Navoiy yoshligidanoq Xoja Hofiz ijodiy maktabiga kirib borar ekan, uning eng yaxshi gumanistik gʻoyalarini oʻzida singdirib rivojlantira boradi. Avvalo, Sheroz Rindining erkin, rindona kayfiyatlari Alisherga katta taʼsir koʻrsatadi, bu taʼsirni Navoiyning oʻzbekcha va forsiy gʻazallaridagi ishq-muhabbat talqinida ham inson erkinligi talqinida ham mutaassib ulamolarga ham qarshi yoʻnalgan achchiq satrlarida ham yaqqol koʻra olamiz. Navoiy devondagi tatabbu'larida rind, boda, soqiy, piri mugʻon, dayr, xirqa, voiz, muhtasib kabi Hofiz gʻazallariga xos boʻlgan obraz va timsollar imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan. Foniyy yaratgan rind ham Xoja Hofiz gʻazallaridagi rind kabi oshiqpesha, ayyosh, hayotsevar, qoʻrqmas, mast-u mustagʻraq. Bu rind riyokorlik va ikkiyuzlamachilik, jamiyatning rasm-rusumlarni pisand emaydigan, dunyoga muhabbat koʻzi bilan qaraydigan va olamda faqat Ishq tufayli yashash mumkinligiga imon keltirgan, ikki olamning foyda-zararini yorning bir iltifotiga qurbon qilishga tayyor boʻlgan fidoyi bir zot. Hofiz agar oʻz gʻazallarining birida:

*Fosh megoʻyam-u az guftai xud dilshodam,  
Bandai ishqam-u az har du jahon ozodam, –*

(Mazmuni: Ochiq-oshkor aytaman va oʻz aytganlarimdan dilshodman – Men Ishq bandasiman, ikki olam savdosidan ozodman) degan boʻlsa, Foniyy ham maslagi rindlik va oshiqlik ekanini quyidagicha ifodalagan:

*Nabvad ba Foniyy zuhdi nihoniy,  
Rindast-u oshiq, vallohu billoh.*

(Mazmuni: Foniyga yashirin zohidlik yarashmas, Xudoga ikki marta qasamki, u rind va oshiqdir).

Foniy ham Hofiz kabi rindlik va oshqlikni riyokorlik, soxta dindorlik, xo'jako'rsin qabilidagi saxovat va ehsonlar, xalq nazarida mahbub bo'lish uchun qilinadigan taqvodorlikdan ko'ra afzal deb biladi. Albatta, bu g'oya boshqa shoirlarning asarlarida ham ko'p marta ta'kidlangan, ammo Hofizning ijodida riyokorlikka qarshi kurash, eng qaltis tashbih va o'xshatishlar vositasida soxtakorlik va diyonatsizlik niqobini sidirib tashlash avji a'losiga ko'tarildi. Hofizning aqidasi ko'ra, Haqni tanish o'zlik haqiqatidan ogoh bo'lishdan boshlanadi. Takabbur va hasad, riyo va yolg'on, nayrang va munofiqlik bo'y ko'rsatgan joyda o'zlik ma'rifatidan ham, Borliq va uning Yaratuvchisining hikmatidan ham nishon qolmaydi. Bu illatlardan xalos qiluvchi, qalb ko'zgusini nojo'ya amallar va yomon xislatlardan poklovchi ma'rifat bodasi – o'zlikni anglash yo'lidagi riyozatlar lozim.

Foniyini va umuman she'riyat ahlini maftun qilgan Hofiz she'riyatida eng murakkab falsafiy tushunchalar, chigal muammolar, olam va odam, azal va abad, tiriklik hikmati, shaxs va e'tiqod mohiyatini ochib beruvchi haqiqatlar shoirona majozlar yordamida bayon etilgan. Natijada kimki Iskandarning jahonnamo ko'zguida bo'lgan bu g'azallarga murojaat qilsa, o'z holi va kayfiyatiga munosib ma'nolarni kashf etadi, o'z dard-u armonlariga taskin-tasalli topadi, Hofiz siymosida bir dardkash va maslakdoshni ko'rganday bo'ladi. Hofiz Sheroziy g'azallarining tili shunchalik ramz va majozlarga boyki, undagi obraz va timsollarning aynan qaysi ma'noda qo'llanilganini aniqlab, qat'iy hukm chiqarish qiyin. Shu sababli, Sayyid Qosim Anvor kabi orif zotlar tomonidan "Forsiy Qur'on" deya e'tirof etilgan bu devonni sof gedonistik kayfiyatda yozilgan, sharobxo'rlik va maishatparastlik targ'ibidagi g'azallar to'plami sifatida baholashlar ham bo'lgan va bu bahs bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Misol tariqasida mana bu matla'ni olaylik:

*Sharobi talx mexoham, ki mardafkan buvad zo'rash,*

*Ki to yak dam biyosoyam zi dunyovu sharu sho'rash.*

(Eranlarni yiqita oladigan kuchi bor achchiq sharob istayman,  
Tokim bir lahza dunyo va uning g'alvalaridan osoyish topayin).

Bu g'azaldagi sharobni qator hofizshunos olimlar spirtli ichimlik ma'nosiga tushunib, tahlil qilganlar. Aytish lozimki, ularning tahlillari ham butkul asossiz emas. Haqiqatda, bir qarashda bu g'azal olamning buqalamunligidan bezgan, ko'p hollarda johillar farog'atda-yu oqillar uqubatda yashashini, jang-u jadallar, xunrezliklar, nohaqliklarni ko'raverib ko'ngli zada bo'lgan mutafakkirning bir dam bo'lsa-da, bu dunyoning g'avg'olaridan orom topish uchun achchiq sharob istashi, nomardlarni siylaydigan davronning o'yinlaridan charchagan mard insonning istaklari tarannumidek ko'rinadi. Foniyni talqiniga ko'ra esa, g'azalda kuylangan achchiq sharobni "jahl mayi" deb tushunmaslik kerak. Harom qilingan narsadan najot istash imonli kishining yo'li emas. Shu sababli, Navoiy mazkur g'azalning tatabbu'ida Hofiz kuylagan sharobning aniqroq, ochiqroq ta'rifini quyidagicha keltiradi:

*Chunin may boshad az xumxonai tavfiqi yazdoniy,*

*Ki natvon yoftan, ey dil, ba zori-yu zar-u zo'rash.*

(Ilohiy tavfiq mayxonasida shunday bir sharob borki,

Ko'ngil uni tavallo yo kuch yo zar bilan ham topolmaydi).

Foniy ta'riflagan sharobni maqolga aylangan "Yo ba zo'ri, yo ba zori, yo ba zar" ("Yo zo'rlik bilan, yo zor-tavallo bilan, yo zar bilan") yo'li orqali qo'lga kiritish mumkin emas. Bu sharob – ilohiy mayxonadan ko'ngillarga inadigan ma'rifat va muhabbat bodasi. Ilohiy ma'rifat va muhabbatni aynan sharobga o'xshatish, bu ikki tushunchaning majoziy bog'liqliklari quyidagilardan iborat: 1) sharob o'zining asliy o'rni bo'lmish xum ichidan o'zganing ta'sirisiz o'zidan o'zi qaynab, o'zini ko'rsatishga harakat qilganidek, oshiqlar ko'nglidagi yashirin ishq ham g'alayon qilib zuhur etishga intiladi; 2) sharob qaysi idishga tushsa, shu idishning ichki shaklini oladi. Xuddi shuningdek, ishq aslan mutlaq bo'lib, oshiqlar orasidagi farqiyat ishqning zotiy xususiyatiga emas, balki ularning ko'ngil jomiga, ya'ni muhabbat yo'lidagi sobitligiga bog'liqdir; 3) may kishining hamma a'zosiga ta'sir qilganidek, ishq ham oshiqning qon-u joniga kirib, uning butun vujudini qamrab

oladi; 4) may ham, ishq ham kishiga mardlik va botirlik bag'ishlaydi; 5) may ham, ishq ham kishi boshidan kibr-u havoni uchiradi va niyoz-u tavozeqa tushiradi; 6) may ham, ishq ham sirni fosh qiladi. Haqiqat-u ma'rifat sirlarini ishq yuzaga chiqaradi; 7) may ham, ishq ham kishini behush qiladi. Ammo ishq behushligi sezgirlik va ogohlikning eng oliy martabasidir; 8) mayparast may ichgani sari yana ko'proq ichgisi keladi, ishqparast ham ishq dardiga yanada ko'proq muhtalo bo'la boshlaydi.

Ma'lum bo'ladiki, Hofiz g'azali bir qarashda ko'zga tashlanadigan ma'nolardan boshqa yanada teranroq ma'no va hikmatlarni o'ziga mujassam etgan. Foni g'azali esa, bu g'azalning go'zal javobiyasi bo'lish bilan birga, qaysidir ma'noda unga sharh o'laroq paydo bo'lgan.

Ba'zan shoir bir g'azalning o'zida ikki ijodkordan ijodiy ta'sirlanganligini, ya'ni bir g'azal ham tatabbu', ham tavr asosida yaratilganligini kuzatish mumkin. "Devoni Foni" da bunday g'azallarga quyidagicha sarlavhalar qo'yilgan: Tatabbu'i Mir dar tavr Xoja (Xoja Hofiz Sheroziy uslubida Amir Xusrav Dehlaviyga javob), Tatabbu'i Shayx dar tavr Maxdum (Abdurahmon Jomiy uslubida Shayx Sa'diyga javob) va h.k. Masalan, quyidagi g'azalda Hofizning tavrda Jomiyga tatabbu' qilingan:

*Biyo, ki piri mug'on dar sabo' sharob andox,*

*Havoi mug'bacha dilho dar iztirob andox.*

(Mazmuni: Kelki, mug'lar piri ko'zaga sharob soldi, mug'bachaning ishq ko'ngillarga iztirob soldi).

"Fotihat ush-shabob" devonidan joy olgan Jomiyning ushbu g'azali aslida Hofizning g'azaliga nazira yo'sinida yozilgan bo'lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Biyo, ki shohidi bo'ston zi rux niqob andox,*

*Nasim dar sari zulfi bunafsha tob andox.*

(Mazmuni: Kelgil, bo'ston go'zali yuzidan niqobni olib tashladi; Nasim gunafsha zulfi uchiga gajak tashladi).

Hofizning gʻazali esa, quyidagi matla' bilan boshlanib, Foni-Navoiyning gʻazaliga vazn va radif, obrazlar tizimi va umumiy ruhiyasi bilan mushtaraklik kasb etgan:

*Xame, ki abroʻi shoʻxi tu dar kamon andoxt,*

*Ba qasdi joni mani zori notavon andoxt.*

(Mazmuni: Qayrilma qoshingning kamondek egilib, menga qarashi zor va notavon jonimga qasd qilgandi).

Tavr asosida yaratgan gʻazallarining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bularda Foni oʻz salafлари – Saʼdiy, Amir Xusrav, Hofiz va Jomiylarning uslubini rivojlantirib, eng xarakterli jihatlarining sintezidan yangi uslub yaratishga harakat qilgani yaqqol namoyon boʻladi. Devondagi gʻazallarining katta qismi salaf shoirlarga tatabbuʻ yoki tavr tarzida bitilganligini aytib oʻtdik va buni yaxlit tarzda quyidagi jadvalda ham koʻrishimiz mumkin:

<b>T/r</b>	<b>Shoirlar</b>	<b>Tatabbu</b>	<b>Tavr</b>
1	Amir Xusrav Dehlaviy	32	11
2	Xoja Hofiz Sheroziy	211	20
3	Shayx Muskihiddin Saʼdiy Sheroziy	22	2
4	Xoja Salmon Sovajiy	2	
5	Xoja Kamol Xoʻjandiy	4	
6	Xoja Hasan Dehlaviy	2	
7	Abdurahmon Jomiy	31	8
8	Amir Shayxim Suxayliy	3	
9	Ahmad Hojibek Vafoiy	2	
10	Shohiy Sabzavoriy	3	

11	Sohib Balxiy	1	
12	Sayfiy Buxoriy	1	
13	Najmiddin Koxiy Miyonkoliy	1	
14	Ismat Baxoriy	1	
15	Husayniy	2	
	Jami:	318	41

## I.02. Forsiy devonning mavzu va g`oyalar olami

O`ziga xos uslubda, mustaqil yozilgan g`azallar Foniyl devonida “Muxtara” yoki “Ixtiro” nomi bilan belgilangan. Foniylning muxtara' g`azallarida ko`zga tashlanadigan yangiliklaridan biri shuki, u xalq tilida mavjud, ammo o`sha davr yozma adabiyotida qo`llanilmaydigan so`zlarni dadillik bilan qo`llab, she'riyatni leksik jihatdan ham boyitgan. Jumladan, tahlil qilinayotgan g`azalning quyidagi baytlarida mumtoz fors she'riyatiga “begona” ikkita so`zga ko`zimiz tushadi:

***Baloxo`roni xaroboti ishqro dar dil,***

*Chi fitnaho, ki daroyad ba ro`zgori sharob*

*Sabo 'kashoni mayi ishqro chu ushturi mast*

*Ba rohi dayr kafandoz bin zi bori sharob.*

(Mazmuni:

Ishq xarobotidagi *ozig 'i balo bo 'lganlarning* ko 'ngliga

Sharob davronida ne fitnalar g 'alayon solur.

Ishq mayining tarqatuvchilarini mast tuyalar kabi

Sharob yukidan dayr yo 'lida *og 'zidan ko 'pik sachrayotganiga* qara).

Yuqorida belgilangan ikkala so 'z "Farhangi zaboni tojiki"da mavjud emas. Qolaversa, bu so 'zlar Foniyning g 'azalnavislikdagi ustozlari – Hofiz, Sa'diy, Amir Xusrav, Jomiylarning asarlarida ham uchramaydi. Navoiyning turkiy tilda yozgan asarlari o 'z navbatida turkiy tillarning bebaho qomusi ekanligini olimlarimiz allaqachon isbotlagan. Ma'lum bo 'ladiki, Navoiy-Foiy turkiy asarlarida qo 'llagan muvaffaqiyatli tajribalarini forsiy g 'azallarida ham tatbiq etgan va bunda ham yaxshi natijalarga erishgan. Xulosa qilib aytadigan bo 'lsak,Navoiy forsiyda bitgan har bir g `azalida u muayyan qolip va mavzu doirasidagi tatabbu yoki biror shoir she 'ri tavrda yozilgan bo 'lsin, ularning har birida xuddi turkiy tildagi she 'rlaridagi kabi biror mavzu-masalani o `rtaga tashlaydi, muayyan g `oya ilgari suriladi.Shu ma 'noda devondagi she 'rlar mavzusi, g `oya va badiiy xususiyatlari bilan turkiy tildagi she 'rlariga hamohang. Foniyning o `zi bu haqda devondagi bir qit 'asida shunday yozadi:

Ma 'nii shirin-u ranginam ba turkiy behadast,

Forsi ham la 'l-u durhoi samin gar bingari(y).

Go `iyo dar rost bozori suxan bikshodaam.

Yak taraf do `koni qannodiyu yak su zargari(y).

Z-in do `konho har kiro kolo kucho donad xarid,



Z-on, ki boshad ag`niyo, in naqdhoro mushtari(y).

(Ya'ni, Shirin va rangim so`zlarim turkiyda behad erur, Forsiysi ham ko`ring xuddi gavhardek bo`lur. Go`yo so`z bozori ichra ochganim ikki do`kon, biri qannodlik (qand-u halvo) eruru biri zargarlik durur.)

“Devoni Foniyy” g‘azallari aruz tizimining rang-barang vaznlarida yaratilgan. Birgina “alif” harfi bilan tugallaydigan g‘azallar turkumida hazaj (18 g‘azal), ramal (11 g‘azal), muzori' (5 g‘azal), mujtass (5 g‘azal), sari' (2 g‘azal), rajaz (2 g‘azal), munsarih (2 g‘azal) bahrlarining turli vaznlarini uchratishimiz mumkin. Forsiy she'riyat tabiatiga hazaj bahrining o‘lchovlari ko‘proq mos tushganligi sababli, Foniyy g‘azallarida ham bu vazn yetakchilik qiladi. Turkiy g‘azal yozishda Navoiy imkoni boricha aruz vaznlarining turli-tumanligini ta'minlash, g‘azalchilikning vazn imkoniyatlarini yanada kengaytirishni maqsad qilgan bo‘lsa, forsiy she'riyatda bu masala ungacha hal etilgani bois imkoni boricha o‘ynoqi, latif va o‘qilishi ravon bo‘lgan vaznlardan foydalanadi.

Devondan Mavlono Abdurahmon Jomiyning g‘azaliga bog‘langan bitta musaddas joy olgan. U aruzning ramali musammani mahzuf (ruknlari va taqti'i: foilotun foilotun foilotun foilun - V - - / - V- - /- V- - /- V-) vaznida yozilgan bo‘lib, 27 baytdan iborat. «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida keltirilishicha, Navoiyning:

*Ochmag‘ay erding jamoli olamoro koshki,*

*Solmag‘ay erding bori olamg‘a g‘avg‘o koshki,*

matla'li g‘azali el orasida shuhrat topib, hatto Husayn Boyqaro she'riyatning nozik bilimdoniga ham manzur bo‘ladi. G‘azal ovozasi Abdurahmon Jomiyga ham yetib boradi. Jomiyga ham g‘azal ma'qul tushib, forsiy tilda ayni shu bahr, qofiya va radifda tatabbu' yozadi. Jomiy g‘azalining matla'si shunday:

*Didame didori on dildori ra'no koshki,*

*Dida ravshan qardame z-on ro‘yi zebo koshki.*

Jomiyning tatabbu' tariqida yozgan g'azali ham el orasida shuhrat topib, Husayn Boyqaro e'tiborini qozonadi va podshoh Navoiyga ushbu forsiy g'azalga musaddas bog'lash (har bir baytni olti misralik bandga aylantirish)ni buyuradi. Hazrat Navoiy bu amrni bajaradi. Yana yangi go'zal asar vujudga keladi. Musaddas shunday boshlanadi:

*Kardame dar xoki ko'yi do'st ma'vo koshki,*

*Sudame ruxsori xud bar xoki on po koshki,*

*Omadi berun zi ko'y on sarvi bolo koshki,*

*Burqa' afkandi zi ro'yi olamoro koshki,*

*Didame didori on dildori ra'no koshki,*

*Dida ravshan kardame z-on ro'yi zebo koshki.*

(Mazmuni: Do'st ko'chasi tuprog'ida makon-ma'vo tutsaydim, ul oyoqlar tuprog'iga yuzimni surtsam qani edi, u sarv qomatli yor ko'chasidan chiqsaydi koshki, olamni yorituvchi yuzidan niqobini olsaydi, u ra'no dildorning diydorini ko'rsaydim, ko'zimni o'sha zebo yuzdan ravshan qilsaydim koshki.)

Alisher Navoiy Jomiy g'azaliga musaddas bog'laganda, taxallusini keltirmagan. Bu an'anaga zid. Chunki kimningdir g'azaliga muxammas yoki musaddas bog'laganda o'z taxallusini qo'shish an'anasi mavjud. Aftidan, bunda Navoiy sulton Husayn Boyqaroga ehtirom yuzasidan shunday yo'l tutgan. Navoiy musaddasi sultonga ham, Jomiyga ham ma'qul kelgan. Shoir musaddas yozish talablariga to'liq rioya etgan, ya'ni ilova qilingan baytlar g'azal baytlari ma'nosini rivojlantirgan, to'ldirgan. Unda mavzu va mazmundan chetga chiqish ko'zga tashlanmaydi.

Devonda keltirilgan **marsiya-tarkibband** shoirning ustози va piri Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan yaratilgan bo'lib, she'rga "Marsiyai hazrati Maxdum" deb nom qo'yilgan. Navoiy ustози vafotiga bir yil to'lganda uning qabri ustiga katta maqbara qurdirib, marosim uyushtiradi va ushbu voqea munosabati bilan marsiya yozadi. Marosimda mazkur marsiyani o'sha davrning mashhur olimlaridan biri Husayn Voiz Koshifiy o'qib beradi. Bu haqda Abulvose' Nizomiyning "Maqomoti Mavlaviy Jomiy" asarida ma'lumot keltiriladi. Marsiya 7

bandli bo‘lib, har bir band 10 baytni o‘zi ichiga oladi (jami 140 misra). Bu marsiya “Xamsat ul-mutahayyirin”ning xotimasiga ham kiritilgan. Marsiya quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Har dam az anjumani charx jafoe digar ast,  
Har yak az anjumi u dog‘i baloe digar ast.*

(Mazmuni:

Har dam osmon anjumanidan yangi bir jafo keladi,

Uning har bir yulduzi yangi bir baloning dog‘idir)

Ushbu tarkibband-marsiya aruz tizimining *ramali musammani solimi maxbuni maqsur* (ruklari va taqti‘i: foilotun failotun failotun failon – V – – / V V – – / V V – – / V V ~ ) vaznida yozilgan.

“Devoni Foniyy”da **qit‘a** janri ham alohida o‘rin egallaydi. Devonda jami 64 qit‘a mavjud bo‘lib, shundan 44 tasi 2 baytli, 13 tasi 3 baytli, 5 tasi 4 baytli va 2 tasi 5 baytli qit‘alardir. Qit‘alarda shoirning ma‘naviy-axloqiy qarashlari, shaxsiy kuzatishlari bilan bir qatorda she‘r va shoirlik haqidagi fikrlari ham o‘z ifodasini topgan.

“Devoni Foniyy”dan 72 **ruboiy** o‘rin olgan. Diqqatga sazovor tomoni, ruboiylarning barchasi to‘rt misrasi ham o‘zaro qofiyalanuvchi taronai ruboiylardir.

*Jonam ba du la‘li jonfizoi tu fido,  
Ruham ba nasimi atrsoi tu fido.  
Oshufta dilam ba ishvahoi tu fido,  
Farsuda tanam ba xoki poi tu fido.*

(Mazmuni:

Jonim sening jon bag‘ishlovchi ikki labingga fido,

Ruhim sen tomondan esadigan muattar nasimga fido,

Oshiq ko‘nglim sening ishvalaringga fido,

Xasta jismim oyog‘ing tuprog‘iga fido).

Devonda **ta'rix** janriga oid she'rlar ham mavjud bo'lib, ularning soni 16 ta. Ta'rix bu muayyan voqea-hodisa yoki inson hayoti bilan bog'liq biror sanani ochiq aytilmay, arab alifbosidagi harflar vositasi, ya'ni abjad usuli asosida ko'rsatishdir. She'rshunoslik ilmida ta'rixga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Bu ikkala qarash ham muayyan asosga ega. Agar ta'rix usuli katta hajmdagi asarlar: dostonlar, manzumalar tarkibida va ko'pincha asarlarning oxirida kelsa, bu alohida janr bo'lmasdan, badiiy san'at hisoblanadi ("Yusuf va Zulayho", "Hayrat ul-abror" dostonlaridagi kabi).

Devonlar ichida alohida mustaqil she'r shakli sifatida keltirilgan ta'rixlarni janr sifatida talqin qilish mumkin. Shu ma'noda "Devoni Foniyy" tarkibiga kiruvchi 16 ta ta'rix alohida janr bo'lib, ular qit'a, ruboiy va to'rtliklar shaklida yaratilgan.

Ta'rixlar mavzusiga ko'ra kishilar tavalludi yoki vafotiga doir; muayyan binolarning qurilishiga oid; taxtga chiqish, fath va biror voqea- hodisa sodir bo'lgan sanaga bag'ishlab yaratilishi mumkin. Alisher Navoiy ta'rixlari, asosan, kishilar vafotiga oid (mutavaffiyot) yo'nalishida bo'lib, hazrat Navoiyning ustozlari va do'stlari Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Ubaydulloh Ahror, Sulton Mahmud kabi shaxslarning vafot sanasiga bag'ishlangan. Masalan, Abdurahmon Jomiy vafotiga baag'ishlangan ta'rixda "ذرمایپادخ" – "Xudo biyomurzad" jumlasini ta'rix sanasi sifatida keltiriladi:

*Sarvi chamani hayot Abdurahmon,*

*K o' raft az in dayri fano so'i jinon.*

*Ta'rix chunin voqelai g'ussarason,*

*Gar mexony: "Xudo biyomurzad" xon.*

(Mazmuni:

Hayot chamanining sarvi – Abdurahmon,

bu foniy dunyodan (ruhi) jannatga ketdi.

G'am-g'ussa yetkazuvchi shunday voqealarning ta'rixini o'qiganingda: "Xudo biyomurxad" – deb o'qi).

Mazkur ta'rixdagi "نزرمايپادخ" – "Xudo biyomurxad" jumlasidagi harflar abjad hisobiga ko'ra belgilanganda hijriy 989, milodiy 1492 yil kelib chiqadi. Ushbu ta'rix ruboiy shaklida yozilgan.

"Devoni Foniy" **lug'z** (chiston) janri bilan yakun topadi. Devonda jami 9 lug'z keltirilgan bo'lib, ular masnaviy, qit'a va ruboiy tarzida qofiyalangan. Lug'zlar sham', miqroz (qaychi), parvona, tirgaz (o'q), taxtiravon, kema kabi narsa-hodisalarga bag'ishlangan. Masalan, sham'ga bag'ishlangan lug'z qit'a shaklida yozilgan:

*Chist on naxle, ki bargash nest, ammo hast gul,*

*Lek, on gulro buvad andar nazar andomu barg.*

*Garcha nabvad abr, lekin abrson shud qatrarez,*

*Qatra az vay chun qudo, aftod bandad chun tagarg.*

*Ham kushandu ham bimirad turfa boshad, lek on-k,*

*Kushtanash nabvad zi qatlu murdanash nabvad zi marg.*

(Mazmuni:

U qanday daraxdurki, bargi yo'g'u, guli bor. Lekin u gulga nazar

Qilsang, qomatiyu bargi bor. Bulut bo'lmasa ham bulutdek

qatralar to'kadi. Qatralar tushib do'ldek qotib qoladi. Qiziq,

uni ham o'ldiradilar, ham o'zi o'ladi. O'ldirilishi qatldanu

o'limi esa ajaldan emas).

Chiston ramal bahrining *ramali musammani maqsur* (ruklari va taqti'i: foilotun foilotun foilotun foilon – V – – / – V – – / – V – – / – V ~) vaznida yaratilgan.

Devoni Foniyy”dan **muammo** janri ham o‘rin olgan. Muammolarning aksariyati bir baytli, faqat 11 - “Anis” ismiga bitilgan muammo ikki baytdan iborat. Muammolar devonga muammoning javobi boshlangan harflarning arab alifbosidagi tartibi asosida joylashtirilgan. Ya'ni dastlab yechimi “ا” – “*alif*” harfi bilan boshlanuvchi ism yoki nomlar keltiriladi. Masalan, Odam, Amin, Omir va b. Shu tarzda yechimi “ب” – “*be*”, “ت” – “*te*” va boshqa harflar bilan boshlanuvchi muammolar berib boriladi. “Xazoyin ul-maoniy”dagi tartibga asosan, muammoning javobi sarlavha sifatida matn boshida keltiriladi. Devonda javobi “*alif*” bilan boshlanuvchi muammolar eng katta ko‘rsatkichni tashkil qiladi. Ularning soni 78 ta. “*Be*” bilan tugallanuvchi muammolar miqdori esa 46 ta. Devonda ba'zi harflar bilan boshlanadigan muammolar uchramaydi. “Devoni Foniyy”dagi tartibga e'tibor qaratish shuni ko‘rsatadiki, aslida shoir har bir harfga mos holda muammo yaratganu, lekin ular bizgacha yetib kelmagan yoki joriy nashrlardan o‘rin olmagan. Chunki Navoiyning o‘zi “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida forsiy tildagi muammolari sonini 500 ga yaqin deb ko‘rsatib, ularning aksariyati Abdurahmon Jomiy nazariga tushganini aytadi. Bu ma'lumot “Devoni Foniyy” nusxalarining hech biri hali to‘liq mukammal nusxa emasligini ko‘rsatadi.

### **I.03. “Sittai zaruriya” – qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va salaflarga munosabat masalasi**

Navoiy “Muhokamatul – lug‘atayn”da fors tilida bir qancha qasida yozganini aytadi. Hamid Sulaymon qayd qilishicha, “Devoni Foniyy” ning uch

qo`lyozmasi(Parij Milliy kutubxonasi qo`lyozmasi, 285 raqam va Turkiya kutubxonasi qo`lyozmalari,1952,3850 raqamlar) muqaddimasida “Sittai zaruriya”(“Olti zaruriyat”) va “Fusuli arbaa” (“To`rt fasl”) sarlavhali ikki to`plam bo`lib, birinchisi olti, ikkinchisi to`rt qasidani o`z ichiga olgan.

“Sittai zaruriya” to`plamidagi qasidalarda Navoiyning diniy, falsafiy qarashlari aks etgan.Majmuadagi birinchi qasida **“Ruh ul-quds”** (“Muqaddas ruh”) deb atalib, 132 baytni o`z ichiga oladi. Qasidaning yozilgan sanasi matn tarkibida ta'rix yo`li bilan hijriy 895, milodiy 1491-yil deb ko`rsatib o`tilgan. Qasidada ilohiy tavhid: olamning yagonaligi, yagona abadiy va azaliy borliq, Yaratganning qudrat va azimati, zarradan koinotgacha uning izmida ekanligi madh etiladi. Qasidada ilohiy tavhid: olamning yagonaligi, yagona abadiy va azaliy borliq, Yaratganning qudrat va azimati, zarradan koinotgacha uning izmida ekanligi vahdat ul-vujud ta'limoti asosida talqin etilgan. Unda olam yaxlit holda yakka-yu yagona Parvardigor qudrati bilan yaratilganligi va ana shu Ruhi mutlaqning tajalliysi tufayli mavjudlik topishi va uzluksiz harakatda bo`lishi ta'kidlangan. Qasida dasturiy-muqaddimaviy xarakterga ega. Unda Olloh – olam aloqadorligining barcha sabablari ruhning olti quvvasi bilan bog`liqligiga e'tibor qaratiladi. “Ruh ul-quds” tuzilishiga ko`ra to`liq qasida bo`lib, mazmun-mohiyatiga ko`ra uni shartli ravishda o`n ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qism nasib (kirish)dan iborat bo`lib, 9 baytni o`z ichiga oladi. Unda Ilohiy qudratga umumiy ta'rif beriladi. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Zihy ba xomai qudrat musavviri ashyo,*

*Hazor naqshi ajib har zamon az o` paydo.*

(Ashyolarga surat beruvchi (Allohning) qudrat qalamiga tasannokim,

Har zamon undan minglab ajoyib naqshlar paydo bo`lgay).

Bu dunyo usta naqqoshi bo`lgan Olloh qalami ostida paydo bo`lgan ajoyib manzara kabi ifodalanar ekan, o`ziga xos she`riy iborada shoir moddiy olamni muhabbat manbaiga aylantirishga harakat qiladi. Bu tasvir bir-biriga o`xshamaydigan ming xil rang bilan tovlanib turadi. Zukko muallif ana shunday rang (naqsh)larning biri inson, tabiat, fazo, osmon tuzilishi ekanligini qasidaning

asosiy qismida ochib, takomillashtirib boradi. Bu naqshlar kasrat olami-Vahdat olamining behisob suratlaridir.

Hamdning “xomai qudrat” (qudrat qalami) iborasi bilan boshlanishi bejiz emas. Hadisda keltirilishicha, Muhammad alayhissalomga nozil bo‘lgan ilk surada “O‘qing! Rabbingiz esa Karamlidir. U insonga qalam bilan (yozishni) o‘rgatdi” mazmunidagi oyatlar bor (“Alaq” surasi, 3–4-oyatlar). “Musavvir” so‘zi ham Allohning go‘zal ismlaridan biri bo‘lib, dastlabki misradayoq Parvardigorning uch sifati – Ilmi, Qudrati va Yaratuvchanligi hamd etilgan. Ko‘rinadiki, shoirning so‘z tanlashi asl manba – Qur’oni karim oyatlari asosida bo‘lsa ham, qo‘llanilishida shoirona mahorat imonli insonning kechinmalari va irfoniy dunyoqarash asoslari bilan omuxta bo‘lib, ajoyib so‘z san’ati namunasini vujudga keltirgan. Alisher Navoiy to‘qqiz falak tasviridan so‘ng o‘n ikki burjni ham xuddi yuqoridagi singari Haq ilmi aks etgan Mutlaq Vujudning bir qismi sifatida tilga oladi. Quyoshning osmon qubbasidagi yo‘lida joylashgan yulduzlar turkumi burjlardir. Ular o‘n ikkita yulduz turkumidan tashkil topib, quyidagicha nomlanadi: Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jady, Dalv, Hut-ya’ni bular hijriy-shamsiy taqvimining oy nomlaridir. Shoir ularning shakllari, samodagi joylashuvi, yil fasllarining almashinuvidagi ishtiroki, mifologik xususiyatlari hamda ular bilan bog‘liq tabiiy hodisalarni qalamga oladi.

Zi bahri on ki hame kaxravist shevai charx,

Chu charx rutbai xarchang soxti volo.

Charxning hamma qilmishlari kajravlikdan iborat bo‘lgani uchun falakda qisqichbaqa (burjlardan to‘rtinchisi) maqomini baland yasading. Hayotda, inson taqdirida ham shunday hodisa kuzatiladi, turmushda kajrav insonlar qo‘lining baland kelishi mumkin..

Mazkur qismda tashxis san’ati vositasida ajoyib lavhalar chiziladi va burjlarning o‘ziga xos noyob xususiyatlarini tasvirlash bilan qasidaning badiiy qimmati yanada oshadi.

“Ruh ul-quds”ning ikkinchi qismida (10–28-baytlar) aytilishicha, Alloh olamni yaratgach, odamni ham yaratdi va ulug‘ martaba berdi. Odam jismi mo‘jizaviy



mukammal qilib yaratildi, odam jismining tuzilishi bilan olam tuzilishi orasida yaqinlik bor. Odamdagi har a'zo – asab, qon aylanishi, yurak, hissiy a'zolar barchasi Alloh qudrati mo'jizasi, ammo bular orasida ikki narsa: aql va ko'ngil insonni mumtoz etadigan ulug' mo'jizalardir. **Uchinchi qismdan yettinchi qismgacha** yilning to'rt fasli ta'riflanadi (29–74-baytlar). Unda zamon va makon tushunchalari, fasllarning almashinib turish qonuniyati, olamning turfa tovlanishlarida Ilohiy qudrat sir-u sinoatining namoyon bo'lishi ko'rsatiladi. Sakkizinchi qism bahor faslining qaytalanishi tasviridan boshlanib, sobit-u sayyoralar ta'rifi, Sharq ilmi nujumiga ko'ra sayyoralarning joylashish o'rni va ularga xos xususiyatlar tasviri bilan davom etadi (75–92-baytlar). “Ruh ul-quds”ning to'qqizinchi qismida so'z o'yini vositasida o'n ikki burjning nomlari inson taqdiri va hayot hodisalariga uyg'un holda tasvirlangan (93–106 baytlar). Keyingi qism Arsh, kursi, maloikalar tasviridan boshlanib, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning Me'roj tunida Alloh huzuriga ko'tarilganlari tasviri bilan davom etadi. Rasullulloh Alloh vasliga erishib, to'qson ming ilohiy kalomni tinglab qaytib kelganlarida, yotgan o'rinlari sovumaganligi Parvardigor ko'rsatgan bemisl mo'jiza ekanligi aytiladi (107–115-baytlar). Qasidaning so'nggi ikki qismi qasd (xotima)ni o'z ichiga oladi. Undan Ollohga munojot va asarning yozilish ta'rixi sanasi, nomlanishi haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Qasida aruz tizimining *mujtassi musammani maxbuni maqtu'* (afoyili va taqti'i mafoilun failotun mafoilun fa'lun V – V – / V V – – / V – V –/ – –) vaznida yozilgan. Unda badiiy san'atlardan *tashxis* eng ko'p qo'llanilgan bo'lib, odam va olam sirlari ushbu san'at vositasida talqin etilgan. Jumladan, quyidagi baytlarda inson jismi – butun olamni o'zida aks ettirgan g'aroyib mamlakat, ko'ngil – bu mamlakatning shohi, aql – vaziri sifatida tasvirlangan:

*G'arib kishvare orosti ba mulki badan,*

*Zi mulk to malakut on chi hast, hast on jo.*

*Dar o' nishondi dilro ba taxti sultoni,*

*Ki shud ba rasmi salotin xidevi mulkoro.*

*Xirad vazorati on shohro muayyan shud,*

*Gadoy – shohu vaziron – kamina banda turo.*

(Mazmuni:

Badan mulkida g‘aroyib bir mamlakat tuzding,

Mulk olamidan malakut olamigacha neki bor, unda mavjud.

Bu mamlakatda ko‘ngilni sultonlik taxtiga o‘tqazding,

U sultonlardek badan mulkini obod qildi.

Aql bu shohning vazirligiga tayinlandi,

Shohlar – gadoying, vazirlar – kamtarin bandangdir)

Majmuadagi ikkinchi qasida **“Ayn ul-hayot”** (“Hayot chashmasi”) deb nomlangan. Hajman 106 bayt bo‘lib, mazmuniga ko‘ra na’t qasida hisoblanadi. Qasidaning yaratilgan yili noma'lum. “Ayn ul-hayot” olam sarvari, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning muborak me'rojlarini, ularning diydorlariga barcha sayyoralar, oyu quyosh, arshu kursi, farishtalar muntazir ekanligi, Payg‘ambarimizning Parvardigor bilan muloqotlari tasviriga bag‘ishlangan.

“Ruh ul-quds” kabi “Ayn ul-hayot” qasidasi ham “tab'i xud”, ya'ni mustaqil ravishda yozilgan asarlardan hisoblanadi. Bu asarda Foniy an'anaviy me'roj mavzusini yangi, toza tasvirlar bilan yoritadi, aql qudratidan xorij bo‘lgan bu mo‘jiza vasfida so‘zning qudratidan foydalanadi.

Qasida muraddaf bo‘lib, “afganand” (tushirishar) radif vazifasini bajargan. Me'rojning lug‘aviy ma'nosi esa, “ko‘tarilmoq”, “Haq taolo huzuriga yuksalmoq”dir. Ham jismoniy, ham ruhiy uruj (yuksalish) tasviri va tavsifiga bag‘ishlangan baytlarni “tushirmoq” ma'nosini anglatuvchi radifning mantiqiy mehvari atrofida birlashtirish katta san'atkorlik talab qiladi. Bir yuz-u olti baytda “tushirmoq” so‘zini qo‘llab, sarvari koinotning ma'naviy kamoloti, koinot gultojining yuksak maqomi va martabasini belgilovchi, kufr va imon ahli o‘rtasidagi farqni uzil-kesil belgilab beruvchi mo‘jiza – me'roj kechasini ta'riflash orqali Foniy forsiy she'riyatda ham zabardast shoir ekanligini isbotlab bergan.

Qasida quyidagi matla' bilan boshlanadi:

*Hojiboni shab chu shodurvoni savdo afganand,*

*Jilva dar xayli butoni mohsiymo afganand.*

(Mazmuni: Tun hojib – pardadorlari qora chodirlarini tushirgan paytda

Oy yuzli sanamlar xayliga jilva – nur tushiradilar).

Bu baytdagi har bir istiora bir necha ma'noni ifoda etadi. “Tun hojiblari” istiorasi qo‘riqchi farishtalar ma'nosini ifodalaydi. “Savdo” so‘zi qoralik ma'nosidan tashqari, “muhabbat, shaydolik, tayyorgarlik, faol harakat” ma'nolarini ham ifodalaydi. “Butoni mohsiymo” – osmondagi sobit-u sayyoralar. Demak, tun farishtalari Payg‘ambarimiz (s.a.v.) me'rojining taraddudiga muhabbat bilan kirishib, osmonga qora chodir tushirdilar, oy tal'atli sayyoralarni bezatdilar, demoqchi shoir. Shu tariqa, 40 bayt davomida tashxis, istiora, tashbeh, iyhom kabi mushtarak va ma'naviy san'atlar vositasida me'roj kechasi tasvirga tortiladi. Bu baytlarda osmon jismlari va tungi manzara ham badiiy obraz, ham moddiy mavjud ashyo kabi taassurot uyg‘otadi. Qasidada osmon faqat sayyora va yulduzlar makoni emas, balki farishtalar maskani, ruhlar olami, pok va ulug‘vor manzil, tiriklik sarchashmasi, hayot ko‘zgusi sifatida tasvirlangan. Me'roj kechasining tasviriga bag‘ishlangan yana bir xususiyat – baytlar yuqori ko‘tarinki ruh, farahbaxshlik bag‘ishlovchi, ohangdor so‘zlar tizimidan tarkib topgan. Chiroyli o‘shatishlar va tashxis unsurlari yordamida yetti sayyora va o‘n ikki burjning asosiy xususiyatlari qalamga olinadi.

Qasida aruz tizimining *ramali musaddasi maqsur* (afoyli va taqti'i: foilotun foilotun foilon – V – – / – V – – / – V~ ) vaznida yozilgan.

Uchinchi qasida **“Tuhfat ul-afkor”** (“Fikrlar sovg‘asi”) deb nomlanib, hajman 99 baytni o‘z ichiga oladi. Shoirning “Sittai zaruriya” debochasidagi ishoralari va qasida matnidagi ta'rixdan mazkur qasidaning barcha qasidalardan oldin, ya'ni 1476 yilda yaratilganligi ma'lum bo‘ladi. Qasidaning yaratilish tarixi haqida “Xamsat ul-mutahayyirin”da batafsil ma'lumot keltirilgan. Qasida Xusrav Dehlaviyning “Daryoi abror” va Abdurahmon Jomiyning “Lujjat ul-asror” qasidalariga javoban yozilgan bo‘lib, darveshlikning oliy rutbasi – faqr tavsifiga bag‘ishlangan. Bunda faqr maqomi komillikning oliy namunasi sifatida mansabdor shaxslar, xususan shohlar axloqiga qarama-qarshi qo‘yiladi. Qasidada ushbu

g'oyaning *tamsil* va *kitobot* san'atlari vositasida bayon qilinishi uning badiiy jihatdan yetukligini ta'minlagan. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Otashin la'le', ki toji xusravonro zevar ast,*

*Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.*

(Mazmuni: Podshohlar tojidagi qip-qizil la'l – boshda xom xayol pishiruvchi (yetiltiruvchi) bir cho'g'dir).

Qasida ikki katta bo'limni o'z ichiga oladi, bu bo'limlarni shartli ravishda yana bir necha kichik qismlarga ajratish mumkin. Dastlabki kichik qismda shohlar va saltanatga ta'rif berilib, shoirning ularga nisbatan salbiy munosabati aks ettirilgan (1–5-baytlar). Bu faqat shoh-u sultonlarning adolatsizliklari, xalqqa jabru sitam etkazishlarini aks ettirish emas, balki masalaga so'fiyona yondashuv ham edi. Navoiyning fikricha, shohlikning o'zi shohni zanjirband etadi, zero, saltanat dabdabani, zeb-ziynatni, oltin-kumush to'plashni talab qiladi. Busiz shohlikning qiymati yo'q. Ikkinchi tomondan, dabdaba va boylik – o'tkinchi, foniyl. So'fiy esa foniyl dunyoning emas, balki boqiy olamning oshig'i. Keyingi qismda Navoiy shohlardan keyin keladigan mansabdorlar – vazir, sadr, faqih, qozi, shayx, voizu mullolarning poraxo'rliqi-yu ta'magirliklarini sanab o'tadi (6–13-baytlar). Navbatdagi qismdan boshlab darvish va tariqat ahlining axloqi tavsif berilib, ularning fazilatlarini mansab va mansabdor shaxslarga qarama-qarshi qo'yiladi, faqr ma'naviy etuklikning oliy namunasi, degan fikr ilgari suriladi (14–38-baytlar).

Qasidaning ikkinchi bo'limidan boshlab yana jamiyatdagi illatlarga diqqat qaratiladi, biroq endi umumiy tanqidiy munosabat o'rni bir-biriga zid xislatlar (odil va zolim, rostlik va yolg'onchilik kabi) qiyosi egallaydi. Shoirning yozishicha, odil shoh ma'naviyati darvish ma'naviyatidan suv ichgan odamdir, zolim esa bundan mutlaq bebahra. Shuning uchun odil podshohning ishi dehqon kabi yurtini obod qilish bo'lsa, zolimning faoliyati qobon kabi ekinzorni vayron qilishdir. Yolg'onchi hokimlar, el moliga ko'z tikkan firibgar amaldorlar mol-dunyo yig'ish bilan ovora, oddiy dehqon yoki kosib o'z hunari bilan rizq topadi,

ularning qo‘li qabarsa-da, qalbi tinchdir. Bu bilan Navoiy mehnat ahli bilan faqr ahli ranju zahmati va axloqi orasida yaqinlik borligiga ishora qiladi (39–60-baytlar).

Navoiyning ta’kidlashicha, faqr ahli uchun fano mulkidan baqo olamigacha bir qadam yo‘l, shohlar ham bunday odamlarga xizmat qilishi, ularni qadrlashi lozim. Valiyulloh darajasiga ko‘tarilgan faqir inson o‘z qadr-qimmatini, salohiyat – nufuzi bilan shohdan ustundir, ya’ni ma’naviyat saltanatdan baland, bu ikkisi orasida doimiy kurash boradi, saltanat ahli har qancha intilgani bilan faqr ahli darajasiga etolmaydi (61–71-baytlar). Navoiy Haq sari olib boradigan yo‘llardan eng yaqini faqr yo‘li ekanligini aytar ekan, bu yo‘l Payg‘ambarimiz (s.a.v.) yo‘llari ekanligini ta’kidlaydi va bu yo‘lning izchil davomchisi sifatida Abdurahmon Jomiyini ko‘rsatadi. SHu tariqa, qasidada o‘n baytda Jomiyning salohiyatiga yuksak baho berilib, uning ilm-u adab va fazlu kamolotda yagonaligi aytiladi (74–83-baytlar). Navoiy qasida so‘ngida yana shoh-u darvish mavzuiga qaytib, aynan Jomiy ma’naviyat saltanatining podshohi ekanligiga ishora qiladi, zero qasidadan maqsad Abdurahmon Jomiy siyratini ta’riflash edi. Navoiy “Tuhfat ul-afkor”ning oxirida qasidaning hajmiga ishora qilar ekan, so‘z o‘yini vositasida uning baytlari soni (99-bayt) Allohning go‘zal ismlariga hamohang ekanligini aytadi. Qasida badiiy jihatdan yuksak saviyada yozilgan bo‘lib, unda ikki jihat alohida ko‘zga tashlanadi: 1) har bir bayt tamsil san’ati asosida yozilgan; 2) qasidada ko‘plab so‘z o‘yinlari, jumladan, *muammo*, *kitobat* san’atidan foydalanilgan. “Tuhfat ul-afkor” tatabbu’ tarzida yozilganligi uchun unda salaflar qasidalarida qo‘llanilgan *ramali musaddasi maqsur* (ruknlari va taqti’i: foilotun foilotun foilon – V– – /– V– – / – V~ ) vazni saqlangan.

Majmuadagi to‘rtinchi qasida **“Qut ul-qulub”** (“Qalblar quvvati”) deb ataladi. Qasida hajman 120 baytdan iborat bo‘lib, XII asr fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Avhadiddin Anvari (1105-1187) qasidasiga tatabbu’ tarzida yaratilgan. Mazmuniga ko‘ra falsafiy qasida hisoblanadi. Unda dunyoning bebaqo va bevafoqligi, falakning zolim ekanligi aytilib, insonlarning ana shu o‘tkinchi, foniy dunyoga mehr qo‘ymay, oxirat kunini o‘ylashlari, ruhiy-ma’naviy

yuksalishga e'tibor qaratishlari zarurligi uqtiriladi. Qasidani shartli ravishda ikki katta qismga ajratish mumkin. Birinchi qismda bu olamning bevafoqligi va falakning zolimligi bilan bog'liq fikrlar keltiriladi (55 bayt). Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Jahonki, marhalai tangi shohrohi fanost,*

*Dar o' majo'y iqomat, ki rohi shohu gadost.*

(Mazmuni: Jahonkim, fanoning bepoyon yo'lining tor bir yo'lakchasidir. Unda abadiy yashamoqni o'ylamakim, bu – shoh-u gadoning (o'tar-ketar) yo'lidir).

Navoiyning yozishicha, bu dunyo o'tkinchi, uni tashlab ketish ota-bobolardan meros, ming yil umr ko'rilsa-da, u bir lahzaday o'tib ketadi. Bu olamda bir osoyish – rohat yo'q, yashashning o'zi qiyin, ustiga ustak yana falak ham inson boshiga jabr-u zulm etkazadi. Bu fikrlar bayoni bilan shoir bir necha maqsadni ko'zlaydi. Birinchidan, Navoiy dunyoga haddan ziyod muhabbat qo'yishni, chin insoniy mohiyatni unutib qo'yishga olib boradigan qusurlarning ildizini ochib bermoqchi. Ikkinchidan, bu o'rinda qazo va qadar masalasi ham bor, ya'ni inson ham, u tug'ilib o'sgan makon ham, butun borliq Alloh hukmida, uning irodasi bilan harakatda, inson buni anglashi kerak. Uchinchidan, bu olam doimiy harakatda ekan, inson ham doimiy faoliyatda bo'lishi kerak, mehnat, intilish hayot qonuni – Alloh belgilagan taqdir qonunidir. Qasidada shu tariqa harakat va faoliyat bilan bog'liq fikrlar bayon qilinarkan, inson umrini to'g'ri yashab o'tishi uchun shariat ahkomlariga rioya qilishi kerak. Qasidaning ikkinchi qismi ana shu fikr bayoniga bag'ishlangan. Unda keltirilishicha, Allohning yagonaligiga iymon keltirish har bir musulmonning birinchi vazifasidir. Shundan so'ng U yaratgan farishtalar, yuborgan osmoniy kitoblar, payg'ambarlar, qiyomat kuni, taqdiri azalga ishonish, islom dinining besh rukniga amal qilib yashash muslim uchun farzdir. Shoirning uqtirishicha, inson ruhi uchun eng kerakli ozuqa taqvodir. Navoiy qasidada ushbu axloqqa rioya qilmagan riyokor kishilarni ham tilga olib, ularni qattiq hajv ostiga oladi, nafratini bayon qiladi (85–102-baytlar). Qasida so'nggida Navoiy Allohga munojot qilib, undan mag'firat tilaydi va qasidaning “Qut ul-qulub” deb nomlanish sababini aytib (taqvo, shariat ahkomini ado etib, dunyo foniyligini anglab, boqiy

dunyoga pok qaytish – qalblarning quvvati), o‘z taxallusini keltiradi. “Qut ul-qulub” Anvariylar qasidasida qo‘llanilgan *mujtassi musammani maxbuni maqsur* (ruknlari va taqti‘i: mafoilun failotun mafoilun failon V – V – / V V – – / V – V – / V V ~) vaznida yaratilgan. Unda asosan *kalomi’ jomi’* san’atidan foydalanilgan.

Beshinchi qasida “**Minhoj un-najot**” (“Najot yo‘li”) 138 baytdan iborat. Sarlavhada keltirilgan nomlardan ma‘lum bo‘ladiki, u ikki forsigo‘y adib Anvariylar va ozarbayjon shoiri Xoqoniy Shervoniy (1120-1199) qasidalariga tatabbu' tarzida yaratilgan. Qasidada Inson va Shayton munosabatlari, yaxshilik va yomonlik tasvirlari beriladi, jannatdan badarg‘a bo‘lgan Odam Ato farzandlari va bani basharning komil insonga xos bo‘lmagan noxush va nomunosib axloqiy belgilari tanqid qilinadi. “Minhoj un-najot” tuzilishiga ko‘ra to‘liq qasida bo‘lib, uning nasib (kirish) qismi 11 baytdan iborat. Unda Hazrati Odamning Tangri qudrati bilan yaratilishi, Allohning ilmiga musharraf bo‘lgani uchun barcha mavjudotlarga sardoru sarvar etib tayinlangani, jannatda Havo bilan osuda va baxtli hayot kechirishi haqida so‘z boradi. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Zihy az sham’i ro‘yat chashmi mardum gashta nurony,*

*Jahonro mardumi chashm omady az ayni insony.*

(Mazmuni: Qanday yaxshiki, yuzingning sham‘i (nuridan) insonlarning ko‘zi yoridi. Insonlikning javhari bo‘lganing uchun jahon odamlarining ko‘z qorachig‘iga aylandi). Matla‘da uch ma‘no mujassam: 1) Odam Atoning hali jannatdan quvilmagan pok vujudi; 2) Muhammad (s.a.v.) nuri; 3) Komil inson vujudi. Uchala ma‘no ham bir-biriga bog‘liq, ya‘ni Odam Parvardigor tomonidan yaratilganda hamma fazilati bilan mukammal edi, unda Nuri Rahmoniy aks etgan bo‘lib, u jahon ko‘z gusining gavhariday aziz va mukarram edi. Chunki Odam Atoda Nuri Muhammad (s.a.v.) azaldan mavjuddir. Odam Ato va Muhammad (s.a.v.) komil inson timsoli bo‘lib, insoniylik javhari komil insonda aks etadi. Qasidaning 12-baytidan boshlab asosiy qism boshlanadi. Unda Odam Atoning jannatdan quvilishi Qur‘oni karimdagi rivoyat asosida badiiy talqin qilinadi. Navoiyning fikricha, Odamning jannatdan quvilishi buyuk bir fojia bo‘lib, bu poklik olamidan, Parvardigor huzuridan haydalanish va farishtalikdan shaytoniylikka

qarab harakatlanishdir. Inson o‘z asliga – komillik yo‘liga qaytishi uchun har qadamda, hamisha kurash olib borishi zarur. Odamning jannatdan quvilgani qanchalik fojiali bo‘lsa, uning o‘zini, o‘z burchi, oliy vazifalarini anglamay, g‘ofil bo‘lib, hirsu havas, yolg‘on va riyoga berilishi shunchalik achinarlidir. Navoiy baytdan baytga tanqidiy tavsifni kuchaytirib, insonga zarar etkazishi mumkin bo‘lgan turli nuqsonlar, falokat keltiruvchi illatlarning poetik sharhini berib boradi. Shoirning fikricha, inson tavba qilib, solih amallar bilan shug‘ullansa, savob ishlar qilsa, yana jannatga qaytishi mumkin. Komillik, avvalo, insonning o‘ziga bog‘liq, uning o‘zi gunohu nuqsini anglab, bularni tark etishi va fazilatu ruhoniy sharaf kasb etishi lozim. Najot yo‘li shundadir. Navoiy qasidada Allohga munojot qilib, o‘zini “zulmoniy nafs”ga giriftorlar sirasiga kiritadi va Yaratgandan mag‘firat tilaydi. Bu holat qasidaning umumlashtiruvchilik xususiyatini ta‘minlab, ta‘sirchanligini oshirgan. Navoiy qasida xotimasidan oldin zamona hukmdori Husayn Boyqaroni madh etib, unga shohlik YOfas davridan boshlab meros ekanligini ta‘kidlaydi va uni madh etishda ojiz ekanligini sahoba Hassanning Rasullulloh madhini keltirishda ojiz qolganligi bilan qiyoslaydi. Qasidaning xotima qismida shoir o‘z baytlarining insonlar qalbini uyg‘otishiga, gumrohlikdan qutulishiga najot bo‘lishini tilab, uni “Minhoj un-najot” deb ataganini aytib o‘tadi. “Minhoj un-najot” salaflar qasidalariga singari *hazaji musammani solim* (afoyli va taqti’i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun, V – – – / V – – – / V – – – / V – – –) vaznida yozilgan.

Majmuaning so‘nggi qasidasi “**Nasim ul-xuld**” (“Jannat shamoli”) Xoqoniy Shervoniy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy qasidalariga tatabbu‘ tarzida vujudga kelgan bo‘lib, 129 bayni o‘z ichiga oladi. Qasidada inson poklanishi va komillikka erishishi uchun nimalar qilishi lozimligi, tariqat odobi va usullari, murshid va murid munosabatlari, Haq yo‘liga kirgan solik oldiga qo‘yiladigan talablar birma-bir bayon etiladi. “Nasim ul-xuld”da Navoiyning naqshbandiya tariqati, tasavvuf haqidagi qarashlari yaxlit bir tizimda ifodalab beriladi, shu ma‘noda qasidani naqshbandiya tariqatining o‘ziga xos dasturi,



she'riy bayonnomasi deb aytish mumkin. Qasida tasavvufning muhim masalalaridan biri – ishq va aqlning muqoyasasi bilan boshlanadi:

*Muallim ishqu piri aql shud tifli dabistonash,*

*Falak don, bahri ta'dibi vay inak charxi gardonash.*

(Mazmuni: Muallim ishqu uning maktabining talabasi aql piridir. Falakni unga adab o'rgatish uchun aylanib turuvchi charx deb bil). Navoiyning fikricha, ishq – nur, aql esa zulmat, ular o'zaro birlashishi mumkin emas, chunki aql Allohni va uning g'ayb olamini bilishga ojiz. Ishq va undan tug'ilgan jazba esa so'fiyni oliy maqomlarga olib chiqadi, maqsad sari etaklaydi. Shundan so'ng Navoiy so'fiylar tasavvuridagi jannat ta'rifiga o'tadi. Unga ko'ra ushbu jannat bog'ining sarv daraxti iymon bog'ining aliflaridir ("iymon" so'zidagi aliflarga ishora), unda Allohning kalomi tinmaydi, anhorlarida muqaddas suvlar oqadi. Shoirning talqinicha, bu gulshan – ma'rifat bog'i bo'lib, u komil inson makonidir (8–15-baytlar). Keyingi baytlarda Navoiy komil inson ta'rifini keltiradi. Unga ko'ra, komil inson quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak: botiniy olami sarishta, zohiriy ko'rinishi parishon, jismi vayron, qalbi esa obod va nurafshon. U doimo xafiy zikr bilan band, kiygani janda xirqa, nafsoniy lazzatni tark etgan, himmati osmon qadar oliy. Ushbu tavsiflarda naqshbandiya tariqati talablari ifodalanganligini ko'rish mumkin. Keyingi baytlarda Navoiy ana shu martabaga talabgor solik uchun zarur bo'lgan ishlar bayonini keltiradi. Navoiyning fikricha, bu yo'lga kirish hech qachon kech emas, chunki bu Yaratganning tavfiqidir. Buning uchun eng avvalo nafsni engish kerak, uni engish piri murshid rahnamoligida amalga oshiriladi. Shundan so'ng qasidada naqshbandiya sulukiga xos zikr tushish qoidasi, faqrning mohiyati, belgi va fazilatlari haqida so'z boradi. Qasidaning 101-baytidan Sulton Husayn Boyqaro tavsifi keltirilib, unga darveshlikni shohlikdan yuqori qo'ygan sulton degan ta'rif beriladi, uning shijoati, adolati va saxovatiga tahsin aytiladi (101–118-baytlar). Xotimada "Nasim ul-xuld"ning yozilish tarixi, ushbu mavzuda qalam tebratgan salaf: Xoqoniy, Dehlaviy va Jomiy qasidalar haqida ma'lumot keltiriladi (120-129-baytlar). "Nasim ul-xuld" salaf qasidalar singari *hazaji*

*musammani solim* (ruknlari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V --- / V --- / V --- / V ---) vaznida yaratilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy "Sittai zaruriya" to'plamiga kirgan qasidalarda Qur'onga, Muhammad payg'ambarga nisbat berilgan shariat qonun-qoidalariga amal qilishga, odil, faqirona hayot kechirishga chaqiradi. U faqirona hayotni adolatsizlikka, zulmga, jaholat dunyosiga qarshi qo'yadi.

## **II bob**

**"Devoni Foniy" da ilohiy-islomiy qarashlarning asl manbalar asosidagi g'oyaviy talqinlari**

### **II.01. Forsiy g'azallarda qur'oniy g'oyalarning badiiy talqini**

Diniy va ilmiy kitoblarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Qur'oni Karim musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Islom e'tiqodiga ko'ra, Qur'on vahiy orqali Muhammad payg'ambarimizga (610-632-yillar davomida) nozil qilingan Allohning kalomi. Qur'on Islom olamida mus'haf nomi bilan ham mashhur.

Ulamolar Qur'onning o'ttiz xil nom va sifatlarini e'tirof etib o'tganlar. Islom tarixiga oid manbalarda keltirilishicha, Qur'on nozil bo'lishi mil 610-yil boshlangan. Muhammad payg'ambar 40 yoshda Makka shahri yaqinidagi Hiro g'orida chuqur tafakkurga berilib o'tirgan bir paytda Jabroil farishta "Iqro" ("O'qi") deb boshlanuvchi "Alaq" surasining avvalgi besh oyatini keltirgan. Yana shuningdek, islom aqidasi bo'yicha, Qur'onning nozil qilinishi ramazon oyining 27-kuniga o'tar kechasi yuz bergan. Shuning uchun ham bu oy muqaddas hisoblanib, ro'za tutilgan kunning 27-kechasi "laylatul – qadr", ya'ni qadrlilohiy qudrat namoyon bo'ladigan, bandalarning bir yillik taqdiri hal qilinadigan tabarruk kecha deb ulug'lanadi. Qur'on sura va oyatlarining nozil bo'lish tartibi voqealarning rivojiga qarab davom etgan. Ilk islom davrida nozil bo'lgan suralar, asosan, Allohning yagonaligi, borliqning mutlaq ilohi, dunyodagi barcha narsalar uning borligidan darak beruvchi dalil ekani, islom ta'limotida belgilangan aqidaviy tushunchalar – farishtalar, oxirat, jannat va do'zaxning haqligi to'g'risida edi. Payg'ambarimiz va musulmonlarga mushkul bo'lgan Makka davrida sabr-bardoshga chaqiruvchi, din yo'lida chekilgan mashaqqatlar uchun ulug' ajr-umukofotlar borligi haqidagi oyatlar nozil qilingan edi. Madina davrida esa diniy marosim va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga bag'ishlangan oyatlar to'g'ri keladi.

Qur'on bo'limlardan tashkil topgan bo'lib, bular sura deb yuritiladi. Har sura oyatlarga bo'lingan. Qur'on 114 sura, 6236 oyatdan iborat. Har bir suraning o'z nomi bor. Oyatlar esa tartib raqami bilan berilgan. Suralarning nomlari uning boshida kelgan so'zdan olingan yoki zikri ko'proq kelgan narsalar, voqealar yohud asosiy qahramon nomi bilan atalgan. Qur'onda birinchi kelgan "Fotiha" surasidan keying suralar katta, o'rtacha va kichik suralar tartibida joylashgan. Ikkinchi "Baqara" surasi 286 oyatdan, eng qisqa "Kavsar" surasi 3 oyatdan iborat. Eng qisqa oyatlar "Toho" va "Yosin", eng uzun oyat "Baqara" surasining 282-oyatidir. Qur'on matnining ko'p qismi Alloh bilan so'zlashish, islom dushmanlari yoki undan ikkilanuvchilar bilan munozara qilish shaklida berilgan. Qur'onning asosiy g'oyasi – Alloh to'g'risidagi ta'limotdir. Uning mavzusi va mohiyati insonlar

tafakkurida ko'pxudolikka barham berish, yakkaxudolikni targ'ib qilish va islom dinini qaror toptirishdir. Shu bilan bog'liq ravishda unda payg'ambarlar, oxirat, taqdir haqidagi aqidalar bayon etilgan. Diniy e'tiqodda mustahkam turish, yaxshilik, ezgulik, savob ishlar, mehr-shafqat, miskin va muhtojlarga yordam berish, insonparvarlikni ulug'lash Qur'onning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Unda tekinxo'lik, birovlar haqini yeyish, boshqalar hisobiga yashash, poraxo'rlik, ishyoqmaslik, jabr-zulm, o'g'rilik, qotillik, dilozorlik, fitnachilik, kibr-u havo qoralanadi. Qur'on kalom ilmining shakllanishi va rivojlanishida birinchi manba bo'ldi. Abu Hanifa "Al-Fiqh al-akbar", Abu Mansur Moturudiy "Kitob at-tavhid", Abu Hafs Nasafiy "Aqoid an-Nasafiy" asarida olg'a surilgan islom ta'limotiga oid o'z fikrlariga dalil sifatida Qur'on oyatlarini keltiradilar. Qur'on faqat arab tilida emas, balki islom tarqalgan mamlakatlar xalqlarining tillarida yaratilgan asarlarda ham o'z aksini topdi. Xususan, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adabiyot namoyondalari asarlarida Qur'ondan olingan iqtibos, ibora, hikoyat, zarbulmasallarni uchratish mumkin.

Qur'on XII asrdan Yevropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlangan. Fransuz sharqshunosi Andre dyu Rie tomonidan qilingan fransuz tilidagi tarjimasi 1647-yil Parijda chop etilgan. XVIII asr boshlarida Yevropa xalqlari tillaridan, XIX asr o'rtalarida arabcha asl matndan rus tiliga tarjima qilingan. Arabchadan G.S.Sablukovning dastlabki ruscha tarjimasi Qozonda uch marta (1878,1894,1907) nashr qilingan. Hozirgi kunga qadar Qur'onga 1700 xil tafsir yozilgan. Jumladan, Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning bir necha jilddan iborat "Tafsiri hilol" nomli asari ( Toshkent, 1992-2005), Abdulaziz Mansurning "Qur'oni karim" ma'nolarining tarjima va tafsiri (Toshkent,2004) o'zbek tilida chop etilgan.

Professor A.Hayitmetov "Xamsa"da islom nuri" maqolasida Alisher Navoiy ijodiyotining shakllanishi va rivojlanishida eng muhim bir manba sifatida Islom, uning asosini tashkil etgan Qur'on hamda payg'ambar hadislariga to'xtalib o'tadi<sup>1</sup>. A.Hayitmetov "Xamsa"da Qur'oni Karimning o'zni va roli xususida bahs yuritarkan, bunday deydi: "Qur'on" da Ollohning kuch-qudrati, cheksiz hokimiyati

haqida shunday gaplar bor: “Ollloh har narsaga qodirdir”(18-bet) “Shubhasiz, sen(Ollloh) qudrat va hikmat sohibasi” (16-bet). “...yer va osmonlardagi narsalar u zot [ Ollloh] ga tegishlidirki, hammasi unga bo`ysunadi (15-bet). “ [U] yer-u osmonlarni paydo qilguvchidir” (15-bet)“ Yer-u osmonlar yolg`iz Olllohning mulki ekanini va sizlar uchun ollohdan o`zga biron do`st yo yordam beruvchi yo`q ekanini bilmadingizmi” (151-bet) “Qur’on”dan bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin.

Darhaqiqat, Ollloh taolo olamni ham qanday xohlasa, shunday yaratgan va bu haqiqat : “Qur’on Karim”da gi ko`p oyatlarda qayta – qayta qayd etilgan. Navoiy faqat moddiy dunyoning emas, balki ma’naviy olamning sir-asrori Qur’onda yashiringaniga to`la inongan. Mutafakkir shoirning ishonch va e’tirofi bo`yicha, insondagi axloqiy qusur va xastaliklarning shifosi ham Olllohning shu muqaddas kitobidadir. Shoir “Nazm ul-javohir” dagi ruboiylaridan birida bu haqidagi shunday xulosani ilgari suradi:

Olam eli ichra gar gado, gar shah erur,  
Ne dardki, ul ko`ngli aro hamrah erur,  
“Qur’on”ni tilovat etsun ar ogoh erur,  
El ko`ngliga chun davo Kalomulloh erur.

Boshqa bir ruboiysida shoir qur’oniy ma’no va so`zlarning mohiyatiga yetish inson qalbiga va ruhiga naqadar foyda yetkazishini quyidagicha talqin qiladi:

“Qur’on”ki erur mujdai joni o`qumoq,  
Yo`q, yo`qki, hayoti jovidoniy o`qumoq.  
Bil ko`ngulga istasang shifoni o`qumoq  
Kim, keldi shifosi oni o`qimoq.

Navoiy ushbu asarining muqaddimasida “...ko`prak avqotim Kalomulloh ishtig`oli va aning tafosiri qiyl-u qoli bila o`tar erdi”,-deydiki, bu fikrni buyuk shoirning ham turkiy, ham forsiy tilidagi adabiy merosi to`la-to`kis tasdiqlay oladi.Navoiyning forsiy merosidan o`rin olgan g`azallar, kichik janrlar hamda

qasidalarda qur'oniylar g'oyalar singdirilgan baytlarni tahlil qilish orqali yuqoridagi fikrlarimizni dalillashga harakat qildik.

Kase, ki yoft ba on chur'a tinatash taxmir,

Amini "allam – al- asmosh" kard Ezidi pok.

(Ya'ni: Kimniki u qultum bilan loyi qorilgan bo'lsa, Pok Tangri uni ismlarni bilishga amin qildi.) Jamol Kamol ushbu baytni "Foniy gulshani"da bunday keltiradi: Kishikim ul qatraga qorilmish tiynati, Amini "allam- al- asmo" aylamish Ezidi pok. Bu bayt Navoiyning na't g'azallaridan bo'lib, unda kishilarning ishq jomi qultumidan yaratilganligi va Ollah tomonidan barcha ismlar o'rgatilganligi, barcha farishtalar insonga sajda qilib, Shaytonning la'natlanishi aytiladi. Yuqoridagi misralarda qur'oniylar g'oyaiqtibos san'ati orqali aks etgan va ayni damda, Qur'oni karimning Baqara surasi 31-oyatiga ishora qilingan. Bu oyati karimaning to'liq matni shunday: " Va allama-l-Adama-l-asmaa kullaha summa 'arozohum alal maloikati fa qola ambiuniy bi-asmai houlay in kuntum sodiqiy", ya'ni (Alloh) Odamga barcha (yaratilgan va yaratilajak narsalarga tegishli) nomlarni o'rgatdi.

So'ngra ularni farishtalarga( birma-bir) ko'rsatib dedi:., Agar (e'tirozingizda) rostgo'y bo'lsangiz, ana u narsalarni nomlari bilan Menga aytib beringiz".

Baso nargis, ki chun Muso asoro bo yadi bayzo

Namoyad lek mo dar xok hamchun maxzani Qorun.

( Nargis ko'p vaqtlar Muso singari mo'jiza qo'lini ko'rsatdi'

Lekin biz tuproq ichida Qorun xazinasidek yotaveramiz)

Bu baytda „yadi bayzo” – oppoq qo'l ma'nosida. Muso (a.s.) ning qo'li. Yuqoridagi baytda shoir talmeh san'atidan unumli foydalanib, o'z fikrini qur'oniylar oyatlar asosida yoritib bergan. Diniy ilmlar asosida bilamizki, Muso (a.s.) aslida qoracha odam bo'lgan. Fir'avn huzuriga kelganda qo'lini yengidan chiqaradi. Allohning qudrati bilan uning qo'li tiniq oq bo'lib chiqadi. Bu o'rinda Navoiy Toho surasining 22-oyatiga ishora qilyapti. „Qo'lingni qo'ltig'ingga tiqqin, u hech qanday yomonliksiz oppoq bo'lib chiqur. (Bu) yana bir boshqa mo'jizadir”

Qof to qof ar kashad adoi mulki u sipah,

Hast dar peshi nabi(y) chun g`azvai Badr-u Xunayn.

(Agar davlatining dushmanlari butun dunyoni to`ldirib lashkar tortib kelsalar, Payg`ambarga qarshi Badr bilan Xunayn jang qilganiday bo`ladi.)

Badr-u Hunayn – Badr qudug`i nazarda tutilgan. Bu quduq Madinadan Janubi-g`arb tarafdin 150 kilometr narida. Shu yerda makkaliklar bilan musulmonlar urush qilgan va musulmonlarning qo`li baland kelib g`alaba qozongan. Bu baytda Oli imron surasining 12-13-oyatlariga ishora qilingan. Ya`ni, “Sizga to`qnashgan ikki firqada ibrat bor edi. Bir firqa Allohning yo`lida urishadi. Boshqasi kofirdir. Ular o`z ko`zlari bilan (dushman) o`zlariga ikki barobarligini ko`rib turardilar. Va Alloh kimni xohlasa, o`shani O`z nusrati ila qo`llar. Albatta, bunda aql egalari uchun ibrat bordir”,deb ayt. (Ma`lumki,Badr urushida mushriklarning soni musulmonlarning adadidan uch barobar ko`p edi. Shunga qaramay, Alloh taoloning nusrati bilan g`olib keldilar).

“Foniy gulshani”da keltirilgan quyidagi baytda ham Yusuf surasining 20-oyatiga ishora bor.

Yusufni sotsalar mis tangaga bu ne qabohatdir,

Kishi chun gavhari ma`ni sotib gohi diram olgay.

„ Va uni arzon bahoga, sanoqli dirhamlarga sotdilar. Ular unga qiziqmagan edilar.(Yusufning hur inson ekanligi, nasli oshkor bo`lib qolsa,boshlariga nimalar kelishini yaxshi bilardilar. Shuning uchun tezroq sotishga harakat qildilar.)”

## **II.02. Imon, shukr, faqrlik kabi qur'oniy g'oyalarning badiiy talqini**

Dunyoda faqat birgina boqiy zot bor. U ham bo'lsa Oллоhdir. Qolgan barcha borliq va mavjudliklarning sifati foniylilik va o'tkinchilikdir. Jumladan, bandasining qismatiga ham fanolik bitilgan. Navoiy "Foniy" taxallusini tanlaganida masalaning shu tomonini ham nazarga olgan. Navoiy forsiy qasidalarida ham faqat Oллоhning nuri boqiyiligini, uning sifatlarini keltirib, haqiqiy ishq Oллоhga bo'lgan ishq ekanligini aytib o'tadi. Bu fikrlarining har birida qur'oniy g'oyalar singdirilib yuborilganki, go'yo Qur'on Navoiy ijodining hayotbaxsh manbasidir. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi baytlarni keltirib o'tamiz.

Chu gasht paykarash orosta ba zeboy,

"Nafaxtu fihi min ruhy" on budash mabdo.

Ya'ni: Surati go'zal qiyofada paydo bo'lgandan so'ng (insonga), o'z (dargohingdagi) ruhdan jon ato qilgan mabda' (mansha') ham O'zingsan.

Bu baytdagi "Nafaxtu fihi min ruhy" jumlasini Qur'oni karimning Hijr surasining 29-oyatiga, Sod surasining 72-oyatiga ishoradir. Bu oyatlarning matni shunday: „Fa-iza savvaytuhu va nafaxtu fiyha min ruhi faqa'u lahu sojidiyn" (Hijr surasidagi 29-oyat, Sod surasidagi 72-oyat), ya'ni bas, qachonki uni to'g'rilab bo'lganimda va ichiga O'z ruhimdan puflaganimda, unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz. Bu bayt orqali Oллоh insonni yaratgani va uning buyuk, muqaddas ekanligini, bularning barchasiga faqat yagona Oллоh qodirligini ko'rishimiz mumkin.

Dar on achuba namudory az hama karday,

Amonatatro ham dodiyash ba rasmi xifo.

Ya'ni: O'sha mo'jizalar (ajoyibotlar) olamida hamma narsani namoyish qilding va maxfiy tarzda omonatingni ham unga topshirding.

Ushbu baytda tahlil etganimizda, Ahzob surasining 72-oyatiga ishora borligini ko'ramiz. Bu oyatning matni shunday: „ Albatta, Biz bu omonatni osmonlarga,



yerga va tog`larga taklif qildik. Bas, ular uni ko`tarishdan bosh tortdilar va undan qo`rqdilar. Uni inson ko`tardi. Darhaqiqat, u o`ta zolim va o`ta johildir.(Bu omonat nima edi, degan savolga ulamolarimiz ushbu oyatdan va boshqa manbalardan kelib chiqib: „Shariat takliflari va Allohning farzlari” deb javob beradi. Darhaqiqat, inson jinsi(hammasi emas, albatt) o`ta zolimdir. O`ziga yuklatilgan va qabul qilgan omonatga muvofiq ish yuritmasdan o`ziga o`zi zulm qiladi.)

Bas, on gahe ba ulumash chu rahnamun gashty,

Naxust kardiy ta`limi “ allamal-asmu”.

Ya`ni: Uning (Odam Atoning) ilm o`rganishi uchun rahnamolik qilgan chog`ingdayoq, dastlab barcha ismlarni unga (O`zing) ta`lim berding.

Baytda Ollohning odamga ismlarni o`rgatganligi aytilyapti va bunda Baqara surasining 31-oyatiga ishora mavjud. “ Va U zot adamga ismlarni barchasini o`rgatdi”.

Bidoyi az karamat qurbi “qoba qavsayn”ash,

Ki ko`ft Ko`si jalolat ba avji “av`adno”.

Ya`ni: Berding karamingdin ikki qosh arosi yaqinligin,

Chaldi buyuklik bongini undan-da yaqinlik aro. Ollohning karami kengligi va bu behad karamdan hazrat payg`ambarga ikki qosh oraliq`idagi masofaday yaqinlik berilganligi aytilyapti. Bu bayt Najm surasidagi 5-8-oyatlarga ishora. Oyati karimalarning matni: “ ‘Allamahu – l- shadiydu-l-quva (5) Zu mirrotin fa-stava(6) Va huva bi-l-ufuqu-l-a`lo (7) Summa dana fatadalla(8)”, ya`ni unga (tilovatni) mustahkam qudratga ega bo`lmish zot (Jabroil) ta`lim berdi (5), (u) husn va iqtidorga ega (farishta)dir. Bas, u (samoda o`z suratiga kirib) turdi(6), o`zi oliy ufqda edi(7), so`ngra yaqinlab pastladi(8).

Chunonchi, har chi bipushid xil`ati xilqat.

Padid gasht ba yak amri “kun”, ki kardi ado.

Ya`ni: Har narsaki, yaratilishning hashamatli kiyimini kiydi, birgina “bo`l” amri bilan uni (Sen) paydo qilding. Ushbu baytda har bir jism Ollohning qudrati bilan yaratilganligi aytilib, Yosin surasining 82-oyatiga ishora qilinyapti. “ Qachon biron narsani iroda qilsa, Uning ishi “Bo`l” demoqlikdir, xolos. Bas, u narsa bo`lur”.

Navoiy qasidalarida borliqda yakka-yu yagona yaratuvchi kuch Ollloh ekanligini uqtiradi va Unga xos bo`lgan yaratuvchanlik sifatlarini e'tirof etib o`tadi.

Burjlar haqida “Qur’oni karimda”: “Albatta Parvardigoringiz osmonlar va yerni olti kunda yaratib, so’ngra o’z arshini egallagan Olllohdir. U (Ollloh) quyoshni ziyo sochuvchi, oyni yorug’lik qilgan va sizlar yillarning sanog’ini hamda (vaqtlarning) hisobini bilishlaringiz uchun uni (ya’ni oyni bir qancha) manzil-burjlarga bo’lib qo’ygan zotdir. Hech shak-shubhasiz, Ollloh bu (borliqni) Haq (qonun va maqsad) bilan yaratdi”,-deyiladi Yunus surasining 5-oyatida. Shoir ham ularning har birida Olllohning bir hikmati aks etganligini burjlar shaklini izohlash orqali badiiy gavdalantirib beradi.

Chu hisnro ba adad soxti duvozdah burch,

Ki har yake ba digar nav gasht jilvanamo. Ya’ni: Qal’aga o`n ikki adad burj yasading, ularning har biri o`zgacha navda jilvalanadigan bo`ldi. Bu haqda Hijr surasining 16-oyatiga ham shunday deyiladi: “ Batahqiq, Biz osmonlarda burjlar qilib qo`ydik va uni nazar soluvchilar uchun ziynatlab qo`ydik”.

Agar dunyodagi har bir narsaning mohiyatini tashkil etuvchi Olllohning yagonaligini nazarda tutsak, ilohiy mohiyatdan iborat bo’lgan butun olamning tub mazmuni uning birligida va butunligida ekan. Bunday o’zaro bog’liqlik va uyg’unlikni quyidagi misralarda ko’rish mumkin.

Libosi barg chu ashxori bog’ro po’shid,

Shud az namoishi har yak chu gunbadi mino.

Shamol chun ba taharruk fikandashon omad,

Va chashmi aql namudor sayru davri samo.

Tayur har yak az on charxro chu anxum shud,

Zi shox bar shox oyanda burch-burjoso.

Barglar libosi bog’ daraxtlari ustini yopdi, har birining tovlanishida feruza osmon (qubba) shakli namoyon bo’ldi. Shamol shunday kuchli harakatga tushib keldiki, yer-u osmonda vujudga kelgan manzarani aql ko’zi bilan tasavvur qilish qiyin edi. Bunday o’zgarishlar har bir daraxtdan yulduzga qadar yuz berdiki, daraxt shoxlarining silkinishi yulduzlarning burjdan-burjga ko’chishini eslatardi.

Ko'rinadiki, misralarda ko'm-ko'k yaproq bilan qoplangan ilgarigi yalang'och daraxtlarning har biri bir osmon kengligiga, uning shoxlari esa burjlarga, bu shox-burjlardagi mevalar "sobit"–ya'ni turg'un yulduzlarga, shoxdan-shoxga sakrab yuruvchi qushlar esa "suho"–harakatidagi yulduzlarga o'xshatiladi.

Shoir tabiat bilan osmon jismlari haqidagi tushunchani shu tarzda bog'lab ko'rsatgan. Osmon va undagi jismlar butun olamning o'zaro bog'lanishidagi yana bir zanjirni tashkil etishini, bu zanjirlarning har bir xalqasi o'ziga xos, ma'lum o'ringa ega ekani va katta ahamiyati borligini ko'rsatishga harakat qiladi.

Borliqdagi barcha narsalar bir-biri bilan chambarchas aloqadorlikda harakat qiladi. Demak, olam ma'lum qonuniyat asosida vujudga kelgan va o'sha nizom asosida "Biz osmonlar va erni hamda ularning o'rtasidagi narsalarni faqat Haq qonun-qoida bilan yaratdik"<sup>1</sup>. Olamning "haq qonun bilan" bunyod etilishi undagi mukammallikka sabab bo'lgan. Samoda ulkan ummonlaru dashtlar, tog'larni bag'riga olgan Erimizdan bir necha barobar katta bo'lgan sayyoralar muallaq turadi va Yaratuvchining amri bilan doimo harakatda bo'ladi. Mazkur fikrimizni "Yosin" surasining 40-oyati bilan tasdiqlay olamiz: «Lash-shamsu yanbag'iy laha an tudrikal-qamara va lal-laylu sabiqul nahar. Va kullun fi falakin yasbahun». («Na quyosh uchun Oyga yetish mumkin bo'lur va na kecha–kunduzdan o'zguvchidir, barchalari falakda suzib yurur»)

Islomiy-irfoniy tasavvurga ko'ra, inson ikki asos jism va ruhdan, inson jismi esa to'rt unsur - suv, olov, havo, tuproqdan iborat. Inson o'z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa tabiatga, ya'ni hayvonlarga borib taqaladi. Bular haqida Qur'oni Karimning bir qancha oyatlarida xabar berilgan. "Va-ssafat" surasi 11-oyati ("Biz insonlarning asli-avvali bo'lmish Odam alayhissalomni yopishqoq bir loydan yaratgandirmiz").

Inson hayvon bilan farishta o'rtasidagi maxluq. Tabiat bilan ana o'shanday bog'liqlik uning qattiqligini, dag'alligini keltirib chiqaradi. Ruh esa insonni ma'naviy kamolotga etaklaydi. Chunki ruh g'ayb olamining "mulki", u insonga latif bir quvvat bag'ishlaydi.

Ba xoki xismash boroni rahmat afshondy,

K-az on muloimat ovarid tinatash paydo.

Tuproqdan yaralgan jismi ustiga Rahmat yomg'irini yog'dirding, o'shandan uning fe'l-atvorida muloyimlik paydo bo'ldi. Biroq, inson tabiati to'la poklanmadi...

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasi 85-oyatida o'qiymiz: "Va yas'alunaka anirruh qulir ruhu min amri rob" (Ey Muhammad, Sizdan ruh-jon haqida so'raydilar. Ayting, "Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir ". Ruh ilohiy ma'rifat, hikmatu donish bilan oziqlanadi. Shuning uchun ruhoni hayot zavqidan bahramand bo'lgan ulug' insonlar xolis, beg'araz, nekbin, muloyim, mehribon, shafqatli, himmatli bo'ladi. Demak, insonning mohiyati ham shu Ruhdadir. Zayniddin Muhammad G'azzoliy "Kimiyo saodat" asarida ruhni shunday ta'riflaydi: "Ruh odam vujudining aslidurkim, hamma qolip va badan aning tobe'idur. Vaqtiki ruh bo'lmasa tan murdordurki, aning hech e'tibori yo'qdir. Badan markab va suvor ruhdur"

Nasr-u fathi ezidi boshad qarini chayshi tu,

Bar safash gar chash chun satri "Izojo" afganand.

Ra'yati jayshi tu chun do`zand xayyotoni sun,

Shuqqaashro ziynati "Inno fatahno" afganand.

Lashkaring safidagi "izo joa" (oyatlari) satriga ko'zlari tushganda, ularga ilohiy fath-u nusratning yaqinligini ko'radilar. Bu bayt orqali Nasr surasining 1-oyatiga ishora qilingan., Vaqtiki, Allohning nusрати va fath kelsa..." Keyingi baytimizda esa Fath surasining 1-oyatiga ishora qilinganligini ko'ramiz., Albatta, Biz senga ravshan fathni berdik". Ya'nikim, qudrat tikuvchilari qo'shinning bayrog'ini tiksalar, unga bog'lanadigan parchasiga fath-u zafar berdik deya ushbu oyatga nisbat berilgan.

Agarchi „hast minal-mai kulla shay'in hay",

G`ariqi o`ro mavt ast, az o` kujo ehyost.

Ya'ni: Agarchi „barcha narsa suvdan yaralgan" bo'lsa ham, suvga cho'kkan o'ladi, tirik qolishi mahol. Bu baytda Anbiyo surasining 30-oyatiga ishorani

ko`ramiz.,,Kufr keltirganlar osmonlar-u yer bitishgan bo`lgan ekanini, bas, Biz ularni ochganimizni va suvdan har bir tirik narsani qilganimizni bilmaydilar? Ushbu oyatdan Olohning qudrati ila osmon ochilib, yomg`ir-qor yoqqani va undan tirik mavjudotlar yaralgan degan ma`nolarni anglaymiz. Bu ilohiy qudrat faqat Allohga xos xislatdir. Zero, ,, Oloh bilguvchi va yaratuvchidir”

Yuqorida biz Qur`onning asosiy mazmun-mohiyati haqida aytib o`tgandik. Oloh faqrlikni, shukronalikni xush ko`rishini, payg`ambarimiz ham musulmonlarni doim shunga da`vat etganliklari barchamizga ma`lum. Ayni damda, nafsga berilishning oqibatlarini qanday bo`lishini ham muqaddas oyat-u karimalarimizni o`qib talqin etish jarayonida bilib olamiz. Quyida keltirilgan baytlarda ham shu jihatga e`tibot qaratilgan:

Chi Fir`avn-u chu Homon gar dihad dastat chunon xohy,

Ki sad Fir`avn-u sad Homon turo boshad ba darbony.

Ya`ni: Agar Fir`avn bilan Homon qo`lingga tushsa, ulardan yuztasini eshiging oldida poyloqchi qilib qo`yishni xohlaysan. Ma`lumki, Fir`avn - qadimgi Misrda hukmronlik qilgan shohlar sulolasidan. Qur`onda shu qavmdan bo`lgan Fir`avn Valid ibni Mus`abning hukmronlik taxtiga o`tirgach, butparastlikni targ`ib qilgani, hatto Xudolik da`vosida bo`lib, hammani o`ziga sajda qilishga majbur etgani, xalqqa jabr-zulmini kuchaytirib, Muso alayhis-salomni ta`qiblay boshlagani, fisq-u fasodi va takabburligi haqida xabar beriladi. Bu haqda „A`rof” va „Shuaro” suralarining oyatlarida aytib o`tilgan. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, inson bu hayotda hech qachon nafsga berilmasligi kerak, Olohning yagonaligiga imon keltirib komillik sari intilib yashashi zarur. Qur`onda aytilganidek, “ Biz iymon keltirib, taqvo qilib yurganlarga najot berdik”(27:53) „Va Qur`onni tilovat qilishga (amr etildim). Kim hidoyat topsa, faqat o`zi uchun hidoyat topadir”(27:92) „Iymon keltirib, yaxshi amal qilganlarning yomonliklarini, albatta, o`chirurmiz va ularni qilgan amallarining eng yaxshisi ila mukofotlaymiz”(29:7). Shunday ekan, barchamiz Olohning solih bandalari bo`laylik.

## **Xulosa**

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyoti an'anaviy g'oya, ma'no, timsol va tasvir usullari asosida rivojlanib kelgan. Turli janr va shakllardan tarkib topgan bu adabiyot xalq og'zaki ijodiyoti bilan bir qatorda arab va fors-tojik xalqlari adabiy merosidan ham unumli foydalangan. Boshqa bir qancha xalqlar qatori turkiy millatlar ham islom dinini qabul qilgandan keyin ularning madaniyati, san'ati, musiqa va adabiyotiga islom dini har jihatdan juda katta ta'sir o'tkazagan edi. Ayniqsa, musulmonchilikning muqaddas kitobi "Qur'oni karim" va Muhammad payg'ambarimizning hadislarini ilm va adabiyot ahli uchun saboq hamda ilhom kitobi darajasiga ko'tarilgan edi.

Qur'onda Ollohning suyukli rasuliga qarata:

— Siz o`zingizga Kitob-Qur'on tushirilishidan umidvor ham bo`lgan emasdingiz. Faqat Parvardigoringiz tomonidan rahmat – marhamat bo`lib ( sizga Qur'on nozil qilindi). (“ Qasas” 28:86)

Darhaqiqat, Qur'onning nozil etilishi faqat musulmon qavmiga emas, balki butun insoniyatga Parvardigorning himmati va marhamatidir. Aslini olganda, “Qur'oni karim” Olloh taoloni insonga tanitadi va ayni zamonda, insonni insonga ham tanitadi. Inson bu muqaddas kitobda o`zini ko`radi va qunt qilsa, o`zini bilishga ham erishadi. Olloh bilan inson orasidagi munosabat va aloqalarni Qur'on qadar keng va teran ifodalaydigan ilohiy kalom yo`ligiga dunyo ahli tan bergan.

Mutafakkir bobolarimizning ko`rsatmalari bo`yicha, inson Qur'on orqali qayta tug`iladi, kamol topadi, eng go`zal mavjudlik darajasiga ko`tariladi. Qur'on yolg`iz insonshunoslik emas, balki hayotshunoslik hamdir. Uning hech so`nmas va porloq nuri hayotning eng murakkab, eng ziddiyatli tushunchalarini ham yorqinlashtirib, yurak va ruhni munavvar qiladi. Shuning uchun Sharqning, jumladan, turkiy xalqlarning ulug` iste`dodli ijodkorlarining barchasi shu muqaddas kitobga suyanib, uning so`zlaridan ilhom olib qalam tebratganlar. Buni turkiy tasavvuf adabiyotining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy bobomizning:

Mening hikmatlarim farmoni Subhon,

O`qub, uqsa hama ma`noyi Qur'on, —

Degan so`zlaridan ham bilish mumkindir. Yoki,

Man bandayi Qur'onam agar jon doram,

Man xoki rahi Muhammad muxtoram.

Gar naql kunat juz inkas az guftoram

Bezoram az o` va az-on suxan bezoram.

Mazmuni: Agar jonim bor ekan, men Qur'onning bandasiman,

Man Muhammad payg`ambar yo`lining tuprog`iman.

Mani shu so`zlarimni kimki o`zgartirib naql qilsa,

Man o`sha kimsadan ham va uning so`zidan ham bezorman.

Qur'on adabiyotimizni ko'p jihatdan boyitgan. Xususan, tasavvuf adabiyotidagi hamd, na't, munojot, payg'ambarlar qissasiga bag'ishlangan asarlarni Qur'onsiz tasavvur etish mumkin emas.

Ulug` mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy ijodiyotiga kelib Qur'on bilan aloqa va axloqiy-ma'naviy bog'lanish yanada kuchaygan edi. Bu masala atoqli navoiyshunos olim A.Hayitmetov, "Qur'on va o'zbek adabiyoti" kitobining muallifi filologiya fanlari doktori H.Karomatov, filologiya fanlari nomzodlari S.Rafiddinov, O. Davlatovlarning tadqiqotlarida qisman yoritilib berilgan. Bizning tadqiqot ishimiz esa qur'oniy g'oya va ma'nolarning "Devoni Foni"da badiiy talqin etilishini o'rganishga bag'ishlangan. Biz mavzuni besh alohida-alohida faslni o'z ichiga olgan ikki bobda tadqiq etib, ma'lum bir xulosalarni ilgari surdik. Bizning amalga oshirgan ushbu ishimiz daryoga nisbatan bir tomchi ham emas, albatta. Lekin biz ushbu mavzuni o'rganish kishini hech qachon toliqtirmasligi va doimo oldinga undashini ham ta'kidlab o'tish lozim deb bildik.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.

2. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.

### **Ilmiy va badiiy adabiyotlar**



3. Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 18-20 жилдлар. – Т.: Фан, 2000-2003.
4. Алишер Навоий. Девони Фоний. Қасоид. ТАТ. 10 жилдлик. 10 -жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик.15-том. – Т.: Фан, 1999.
6. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.:Шарқ, 2016.
- 7.Абдусалом Абдуқодиров. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, Нури маърифат, 2003.
8. Бекова Н.Алишер Навоий шеърлятида ҳамд поэтикаси.-Тошкент: Фан, 2007, 192 б.
- 9.Бобохонов Ш. Қуръони карим (30 пора) . – Т., 1993.
10. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. -Бухоро: Бухоро нашриёти, 1994, 208 б.
11. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqini :fals.fan.d-ri.dis.-Samarqand,2017.
- 12.Davlatov O. Foniyning muxtara g`azallari // O`zbekiston adabiyoti va san`ati.- Т.:2013,№47
13. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. -Тошкент: Фан, 1993, 95 б.
14. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил): филол.фан.д-ри дис. автореф. -Тошкент, 1993, 50 б.
15. Комилов Н. Тасаввуф. I китоб. -Тошкент: Ёзувчи, 1996, 272б.
16. Комилов Н. Тасаввуф. II китоб. -Тошкент: "Адабиёт ва санъат" ҳамда "Ўзбекистон", 1999. 204 б.
17. Мир Алишер Навоий. Фоний гулшани (форсийдан Ж.Камол таржимаси). – Т.: MERIYUS, 2011.
18. Мирзоев А. Девони Фонийнинг ғоявий хусусиятлари// IX конференция. - Тошкент, 1965.

19. Навоий Алишер. Рух ул-қудс. Сўзбоши, насрий баён, изоҳ ва луғат билан нашрга тайёрловчилар проф. Р.Воҳидов, тадқиқотчи Н.Бекова. -Тошкент: Ўзбекистон, 2002, 35 б.
- 20.Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972, 784 б.
- 21.Фитрат А. Адабиёт қоидалари. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995, 110 б.
- 22.Фитрат А. Танланган асарлар. Пжилд. — Тошкент:Маънавият,2000.
23. Fozilova M. Alisher Navoiyning „Sittai zaruriya”qasidalar turkumining o`rganilishi va talqinlari: magist dis.-Buxoro,2015,112 b.
24. Хожа Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent: “Movarounnahr”, 2006-yil
- 25.Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. IV том. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.
- 26.Шодиев Э. Навоий татаббуларига оид баъзи мулоҳазалар: “Девони Фоний” ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1997. - № 2
- 27.Эркинов С. "Тухфат ул-афкор" қасидаси матни, нашрлари //Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон, 21-27-б.
- 28.Юсупова Д., Қуронов С. Навоийнинг форсий қасидалари // Жаҳон адабиёти. – Т., 2011.
- 29.Ўзбек адабиёти тарихи. IIтом. — Тошкент: Фан,1978.
30. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., Давлат илмий нашриёти, 2005.
- 31.Қуръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). - Тошкент: Чўлпон, 1992.
- 32.Қуръони карим ( таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур)-,, Тошкент ислом университети”нашриёт-матба бирлашмаси,2014.
- 33.Қуръони карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971.
34. Ғаззолий. Кимийи саодат. –Тошкент: Камалак, 1995, 14 бет.
- 35.Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба бирлашмаси, 1991.

36. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. — Тошкент, “Фан” нашриёти, 1996-йил.

37. Ҳамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поэтик мероси тадқиқотидан. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, № 5.

### **Internet saytlari**

- [www.alishernavoiiy.uz](http://www.alishernavoiiy.uz)
- [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
- [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
- [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)

### **Mundarija**

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I Bob. “Devoni Foni”ning tuzilishi, janriy tarkibi, g`oyaviy mundarijasi...3</b>	
1.1.“Devoni Foni”ning tarkibiy tuzilishiga xos xususiyatlar.....	3-14
1.2. Forsiy devonning mavzu va g`oyalari olami .....	15-22
I.03. “Sittai zaruriya” – qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va saloqlarga munosabat masalasi.....	23-34
<b>II Bob. “Devoni Foni”da ilohiy-islomiy qarashlarning asl manbalar asosidagi g`oyaviy talqinlari .....</b>	<b>35</b>
2.1. Forsiy g`azallarda qur`oniy g`oyalarning badiiy talqini.....	35-40
2.2. Imon, shukr, faqrlilik kabi qur`oniy g`oyalarning badiiy talqini.....	41-48
<b>Xulosa.....</b>	<b>49-50</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>51-53</b>